2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

YANGI O‘ZBEKISTON

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 204 (1803), 2026-yil 1-oktabr, payshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

O‘QITUVCHI – MEHR DARYOSI, O‘QITUVCHI – EZGULIK BULOG‘I, O‘QITUVCHI – MA’RIFAT QUYOSHI!

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 30-sentabr kuni “Yangi O‘zbekiston” universitetiga tashrif buyurib, ta’lim tizimidagi yutuqlar ko‘rgazmasi bilan tanishdi, o‘qituvchi va murabbiylar bilan uchrashuv o‘tkazdi.





Insonning hayotni anglab, tushunishi, muayyan kasb yoki sohani egallashida muallimning o‘rni beqiyos. Odam qaysi sohada muvaffaqiyatga erishmasin, bunda, albatta, ustozlarning hissasi katta.

Ushbu kasb egalari bir muddat esdan chiqqani ham bor gap. Yaqin-yaqingacha faoliyatiga daxldor bo‘lmagan ishlarga jalb qilingani ham hayotiy haqiqat. Aytaylik, o‘qish boshlangan pallada o‘qituvchilar sinfxonalarda emas, paxta dalalarida yurardi. O‘quvchilar, talabalar bunda ularga yordamchi edi. Bayramlarni tantanali nishonlash haqida-ku, gap-so‘z bo‘lishi mumkin emasdi.

Bugungi islohotlar va ta’lim tizimiga qaratilayotgan e’tibor samarasi o‘laroq barpo etilgan “Yangi O‘zbekiston” universitetida 1-oktabr — O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan tashkil etilgan tantanali marosimda ishtirok etarkanmiz, xayoldan ana shunday o‘ylar o‘tdi. Hozir o‘qituvchilar mehnati chin ma’noda qadrlanmoqda. O‘zlari ulug‘lanib, ardoqlanmoqda.

Avvalo, tantanali uchrashuvning aynan “Yangi O‘zbekiston” universitetida o‘tkazilganiga to‘xtalsak. Yangi Toshkent shahrida qad rostlagan yangi binoda mamlakatimiz yetakchisining ustozlar bilan uchrashuv o‘tkazishi hamda ta’lim ko‘rgazmasi bilan tanishishi shunchaki ramziy tadbir emas, balki davlatning ta’lim siyosatidagi strategik yo‘nalishlarini ifodalovchi muhim voqeadir. Binobarin, “Yangi O‘zbekiston” universiteti mamlakatimizdagi eng zamonaviy, xalqaro dasturlar va yuqori texnologiyalarga asoslangan oliygohlardan.

Uchrashuv uchun mana shunday zamonaviy universitet tanlangani esa davlatning butun ta’lim tizimini, jumladan, oddiy maktablarni ham raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va amaliy ilm-fan bilan integratsiya qilish maqsadidan dalolat beradi.

Davlatimiz rahbari bu yerga tashrifi davomida universitet o‘quv va ilmiy infratuzilmasi, oliygoh hududida maktabgacha ta’limdan tortib, oliy ta’limgacha bo‘lgan barcha bosqichni qamrab olgan pavilyonlar ko‘rgazmasi bilan tanishdi.

Yurt kelajagi tabiiy boyliklarga emas, intellektual salohiyatga, inson kapitaliga qaratilayotgan e’tiborga bog‘liqligi bugun ko‘p takrorlanmoqda. Davlatlar ham shunga intilmoqda. Bunday zamonaviy va yuksak maqsadli mamlakatlar orasida esa O‘zbekiston ham bor, albatta. Binobarin, keyingi yillarda keng ko‘lamli va aniq maqsadli islohotlar natijasida yurtimiz ta’lim tizimida butunlay yangicha harakatlar boshlandi. Amaliy natijalarga erishildi. O‘qituvchi maktabga, o‘quvchi va talaba ilmga qaytdi. Muallimning qadri va obro‘si yuksaldi. Bugun yangi O‘zbekiston boyligi partalarda, ilg‘or laboratoriyalarda, turli yo‘nalishdagi xalqaro musobaqalarda bo‘y ko‘rsatmoqda. Hayotbaxsh islohotlardan bahramand oltin avlod vakillari esa hamma sohada o‘zini namoyon etmoqda. Bu yutuqlar zamirida umrini yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishdek ulug‘ ishga bag‘ishlab kelayotgan ustoz va murabbiylar mehnati mujassam.

Buni davlatimiz rahbari ham e’tirof etib, “O‘qituvchi — mehr daryosi, o‘qituvchi — ezgulik bulog‘i, o‘qituvchi — ma’rifat quyoshi! Ustozlar bugun yoshlar qalbiga qadayotgan ma’rifat va ezgulik urug‘ining hosilidan ertaga butun jamiyat bahramand bo‘ladi”, deya ta’kidladi.

Shuningdek, mamlakatimiz yetakchisi buyuk ajdodlarimiz kamoloti ortida ham ularga saboq bergan muallimlar turganini yodga olib, Imom Buxoriy, Beruniy, Amir Temur va Alisher Navoiy kabi siymolarni yetishtirgan ustozlarga “odamiylik bog‘ining bog‘bonlari” ta’rifini berdi.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON O‘QITUVCHI VA MURABBIYLARIGA

Muhtaram ustoz va murabbiylar!

Avvalo, o‘z hayotini dunyodagi eng ulug‘ va sharafli ishga — yosh avlod tarbiyasiga bag‘ishlab kelayotgan sizdek mo‘tabar zotlarni, yurtimizdagi barcha pedagog xodimlarni 1-oktabr — O‘qituvchi va murabbiylar kuni bilan chin yurakdan muborakbod etaman.

Ushbu qutlug‘ ayyomda Yangi O‘zbekistonimizning kuch-qudrati va salohiyati, qo‘lga kiritayotgan ulkan yutuq va marralarimiz, qalbimizdagi olijanob fazilatlarning bezavol manbalaridan biri bu bilim-ma’rifat, tarbiya va madaniyat ekanini yanada chuqur his etamiz. Aziz farzandlarimizni ayni shu ruhda tarbiyalab, Vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan barcha zahmatkash muallimlarimizga, ustoz-domlalarimizga samimiy minnatdorlik bildirib, cheksiz hurmat va ehtirom bilan ta’zim qilamiz.

Qadrli yurtdoshlar!

Bog‘cha va maktab ostonasiga ilk bor qadam qo‘ygan har bir bola uchun bilimlar eshigi, mo‘jizalar olamini ochadigan muhtaram o‘qituvchi va murabbiylar timsolida biz yangi shaxs, yangi avlod tarbiyachilarini ko‘ramiz. Shu yo‘lda shogirdlariga ko‘z nuri, yurak qo‘rini berib mehnat qiladigan, o‘z kasbiga sodiq va jonkuyar bunday insonlar, hech shubhasiz, milliy pedagogikamizning oltin fondini tashkil etadi. Men Uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini aynan mana shunday fidoyi ustozlar faoliyatida, ularning kasb mahorati, qalb saxovatida ko‘raman.

Maktab kelajak bog‘i bo‘lsa, muallim shu maskanda umid nihollarini o‘stiradigan mohir bog‘bondir. O‘qituvchi — mehr daryosi, ezgulik bulog‘i, ma’rifat quyoshidir. Shu bois, bu mas’uliyatli soha xodimlarining mehnatini ulug‘lash va qadrlashdan hech qachon charchamaymiz.

Aziz do‘stlar!

Bugungi kunda erishayotgan, havas qilsa arziydigan natijalarimiz orasida ta’lim yo‘nalishidagi yutuqlarimiz biz uchun alohida qadrli desam, o‘ylaymanki, butun xalqimizning fikrini ifoda etgan bo‘laman. Chunki bundan atigi o‘n yil oldin ijtimoiy hayotimizda g‘oyat og‘ir, ota-onalarni eng qiynaydigan soha — aynan ta’lim-tarbiya sohasi, eng kamsitilgan kasb egasi esa o‘qituvchilar edi. Sizlar bilan birga qattiq ishlab, qancha-qancha muammolarni hal qildik, oldimizda turgan to‘siq-g‘ovlarni bartaraf etdik. Hozirgi vaqtda ta’lim sohasi jadal rivojlanayotgan sohaga, o‘qituvchilik esa obro‘-e’tiborli kasbga aylanmoqda.

Buni quyidagi misollarda yaqqol ko‘rish mumkin. Hozirgi vaqtda mamlakatimizdagi 40 ming o‘qituvchi 1 ming dollar, ularning 1 ming 500 nafari 2 ming dollardan ziyod miqdorda maosh olmoqda. Joriy yil yangi formatda o‘tkazilgan “Yil o‘qituvchisi” tanlovining 208 nafar tuman va shahar bosqichi g‘oliblariga ilk bor 616 million so‘mdan mukofot berildi. Bunday rag‘batlantirish mexanizmlari kelgusi yilda bog‘cha tarbiyachilari va texnikum ustalari faoliyatiga ham joriy etiladi.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON VA BELARUS TADBIRKOR AYOLLARINING TO‘RTINCHI BIZNES FORUMI ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli forum ishtirokchilari!

Qadrli do‘stlar!

Sizlarni O‘zbekiston va Belarus tadbirkor ayollarining Xorazm zaminida — go‘zal Xivada o‘tkazilayotgan to‘rtinchi biznes forumining ochilishi bilan samimiy qutlayman.

Bu noyob shahar asrlar davomida Buyuk ipak yo‘lining eng muhim markazlaridan biri bo‘lib kelgan. Bu yerda turli madaniyatlar bir-birini boyitgan, savdo va hunarmandchilik rivojlangan, yangi g‘oya va texnologiyalar paydo bo‘lgan.

Bugun mehmondo‘st Xiva yana ochiq muloqot va o‘zaro manfaatli hamkorlik makoniga aylanib borayotgani chuqur ramziy ma’noga ega.

Aziz do‘stlar!

O‘zbek va belarus xalqlarini mustahkam do‘stlik, o‘zaro hurmat va ishonch rishtalari bog‘lab turadi. Keyingi yillarda mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlar yanada jadal rivojlanib, yangi amaliy ma’no-mazmun bilan boyidi.

Davlatlarimiz o‘rtasida joriy yil 9-iyul kuni Strategik sheriklik munosabatlarini o‘rnatish to‘g‘risidagi deklaratsiyaning imzolanishi katta siyosiy ahamiyatga molik voqea bo‘ldi. Ushbu muhim hujjat va 2026-2030-yillarda savdo-iqtisodiy va ijtimoiy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi hamkorligimizning uzoq muddatli yo‘nalishlarini belgilab berdi.

Bugungi kunda O‘zbekiston va Belarus sanoat va qishloq xo‘jaligi, savdo va investitsiyalar, transport va logistika, ilm-fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va turizm sohalarida muvaffaqiyatli hamkorlik qilmoqda.

O‘tgan yil yakuni bo‘yicha o‘zaro savdo hajmi 1 milliard dollarga yaqinlashdi. Bizning umumiy vazifamiz — 2030-yilgacha bu ko‘rsatkichni ikki barobar oshirishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun mamlakatlarimiz iqtisodiyotining bir-birini to‘ldiradigan imkoniyatlaridan yanada faol foydalanish, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, ikki mamlakat hududlari va ishbilarmon doiralari o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalarni mustahkamlash muhimdir.

Bu ishlarda tadbirkor ayollar faol ishtirok etayotgani quvonarlidir. Ular yangi bozorlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirmoqda, zamonaviy texnologiyalarni joriy etmoqda, talab yuqori bo‘lgan ishlab chiqarish va xizmatlarni rivojlantirmoqda. Shu bois, xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashni biz nafaqat muhim ijtimoiy vazifa, balki eng avvalo, mamlakatlarimizning iqtisodiy o‘sishi, innovatsion rivojlanishi va raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili deb bilamiz.

Davomi 2-betda

DAVLATIMIZ RAHBARI FIFA PREZIDENTINI QABUL QILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 30-sentabr kuni Xalqaro futbol assotsiatsiyalari federatsiyasi (FIFA) rahbari Janni Infantinoni qabul qildi.

Suhbat avvalida FIFA Prezidenti O‘zbekistonning futboldagi yutuqlari hamda mamlakatimizda sportni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan samarali islohotlar natijalarini e’tirof etdi.

O‘zbekiston va Ozarbayjonda yirik nufuzli sport tadbiri — 20 yoshgacha bo‘lgan yoshlar o‘rtasidagi futbol bo‘yicha jahon chempionatini o‘tkazish uchrashuvning asosiy mavzusi bo‘ldi.

FIFA bilan futbolni ommalashtirish, ayniqsa, yoshlar orasida ushbu sport turiga qiziqishni yanada kuchaytirishga qaratilgan qo‘shma dasturlarni ilgari surish borasida samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yilgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Sheriklikni, avvalo, futbolni tashkil etish va boshqarish tizimini transformatsiya qilish, yosh iste’dodlarni kashf etish va ularning salohiyatini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish hamda murabbiylar, hakamlar, menejerlar, sport shifokorlari va texnik mutaxassislarni xalqaro saviyada tayyorlash yo‘nalishlarida yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

O‘zbekistonda FIFAning yirik turnirlari va tadbirlarini tashkil etish hamda Toshkent shahrida federatsiyaning mintaqaviy vakolatxonasini ochish jarayonini jadallashtirishga alohida e’tibor qaratildi.

O‘zA



3

Hozir 40 ming muallim 1000 dollardan, yana 1500 nafari 2000 dollardan yuqori maosh olmoqda. Qolaversa, zamonaviy metodika joriy qilayotgan, olimpiada g‘oliblarini tayyorlayotgan ustozlarning mehnati munosib rag‘batlantirilmoqda.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 1-oktabr, 204-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

O‘ZBEKISTON O‘QITUVCHI VA MURABBIYLARIGA

Boshlanishi 1-betda

So‘nggi o‘n yilda yurtimizda 1 million 800 ming o‘rinli bog‘cha, 1 million 500 o‘rinli maktablar barpo etganimiz, 10 mingdan ziyod bog‘cha va maktabni zamonaviy ko‘rinishga keltirganimiz tariximizda misli ko‘rilmagan natijalardir. Prezident, ixtisoslashgan va ijod maktablari kabi mutlaqo yangi namunadagi ta’lim dargohlari paydo bo‘lgani, oliy o‘quv yurtlari soni 77 tadan 205 taga o‘sib, ulardagi qamrov 45 foizga yetgani ham albatta katta ijobiy o‘zgarishdir.

Sohada xususiy sektor izchil rivojlanib, sog‘lom raqobat muhiti shakllanmoqda. Eng muhimi, ana shunday sharoitda ishlash, bilim va malakasini oshirish hamda namoyon etishga qodir bo‘lgan yangi pedagoglar avlodi maydonga chiqmoqda.

Ta’lim islohoti yo‘lidagi bunday ulkan yutuqlarimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi.

Tabiiyki, bularning barchasi o‘quv-tarbiya ishlarining sifati va samarasini oshirishga xizmat qilmoqda. Masalan, 2026-yilda yurtimiz o‘quvchilari xalqaro olimpiadalarda 228 ta medalni qo‘lga kiritgani, jumladan, mamlakatimizda bo‘lib o‘tgan xalqaro kimyo va informatika olimpiadalarida o‘g‘il-qizlarimiz yuqori o‘rinlarni egallagani g‘oyat quvonarlidir.

Bir necha kun oldin qadimiy Samarqand shahrida yakuniga yetgan Butunjahon shaxmat hamda parashaxmat olimpiadalarida g‘olib va sovrindor bo‘lib, Vatanimiz shuhratini dunyoga tarannum etgan azamat yoshlarimizning tom ma’noda tarixiy yutuqlarni qo‘lga kiritishida sizlarning hissangiz beqiyos ekanini el-yurtimiz yaxshi biladi va yuksak qadrlaydi.

Bu yil o‘quvchilik davrida xorijiy til va fan sertifikatiga ega bo‘lgan farzandlarimiz soni 100 ming nafarga yetdi, 5 mingga yaqin maktab bitiruvchisi esa oliygohlarga kirishda eng yuqori ball to‘pladi.

Nufuzli PISA reytingida 15 yoshli o‘quvchilarimiz tabiiy fanlarni o‘zlashtirish bo‘yicha 32 pog‘ona yuqori ko‘tarilib, 48-o‘rinni egallagani ham e’tiborga loyiq, albatta.

Oliygohlarimizdagi 185 ta ta’lim dasturi xalqaro akkreditatsiyadan o‘tgani, xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda 441 ta qo‘shma ta’lim dasturi yo‘lga qo‘yilgani ham salmoqli ko‘rsatkichdir.

Hurmatli yurtdoshlar!

Biz kelgusi o‘n yilni mamlakatimiz uchun milliy yuksalish davri sifatida belgilab, oldimizga yanada ulkan maqsadlar qo‘ymoqdamiz.

Milliy yuksalishning tayanch asosi — maktab, texnikum va oliygohlar ekanini siz, azizlar albatta yaxshi tushunasiz. Shu bois, bu borada biz, avvalo, sizlarga — muhtaram ustoz va murabbiylarimizga tayanamiz. Ta’lim-tarbiya tizimi vakillari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda shu yo‘nalishda oldimizda turgan dolzarb vazifalar va ularning yechimlari haqida atroflicha gaplashib oldik.

Ilg‘or pedagoglarni rag‘batlantirish maqsadida Abdulla Avloniy nomidagi davlat mukofotini ta’sis etishga qaror qildik. Hech shubhasiz, bunday mukofot sizlarni yanada katta yutuq va marralarga ilhomlantiradi deb ishonaman.

Farzandlarimiz qalbida Vatanga muhabbat, uning taqdiriga daxldorlik hissi va g‘urur tuyg‘usini kuchaytirish, ularni tariximiz va madaniyatimizga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ishlarni endi oilada ham, mahalla, maktab, texnikum va oliygohlarda ham yangicha tashkil etamiz. Bunda hozirgi g‘oyat murakkab zamon talablarini qat’iy hisobga olishimiz zarur. “Yosh avlod tarbiyasi — butun jamiyatning muqaddas burchi, vazifasi” degan ezgu g‘oya har birimizning yuragimizda aks sado berib, kundalik hayotimiz mezoni, mazmuniga aylanishi shart.

Yangi O‘zbekiston yoshlarini “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” deb yashaydigan avlod sifatida kamol toptirishning beqiyos ahamiyatini yaxshi tushunadigan siz, hurmatli ustoz va murabbiylar boy bilim va tajribangiz, iste’dod va mahoratingiz bilan bu jarayonlarda faol ishtirok etasiz deb ishonaman.

Sizlarni yana bir bor chin dildan qutlab, barchangizga mustahkam sog‘liq, oilaviy baxt-saodat tilayman.

G‘oyat sharafli va mas’uliyatli faoliyatingizda doimo zafarlar yor bo‘lsin, aziz ustozlar!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

O‘ZBEKISTON VA BELARUS TADBIRKOR AYOLLARINING TO‘RTINCHI BIZNES FORUMI ISHTIROKCHILARIGA

Boshlanishi 1-betda

Hurmatli forum ishtirokchilari!

Ushbu uchrashuv O‘zbekiston va Belarus ishbilarmon ayollari o‘rtasidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri va ochiq muloqot olib borish an’anasini davom ettiradi.

2023-yildan buyon forumlar Minsk, Toshkent va Vitebskda muvaffaqiyatli o‘tkazildi. Ularning yakunlari bo‘yicha imzolangan bitimlar, o‘rnatilgan ishbilarmonlik aloqalari va shakllantirilgan tashabbuslar portfeli bunday formatga bo‘lgan ehtiyojni ishonchli tarzda tasdiqladi.

Bugun navbatdagi qadamni qo‘yish — muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan alohida loyihalardan tizimli va uzoq muddatli hamkorlikka o‘tish muhim ahamiyatga ega.

Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ularning bilim va zamonaviy kasb-hunarlarni egallashi, bandligini kengaytirish va tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi.

Birgina o‘tgan yilning o‘zida ushbu maqsadlar uchun 23,5 trillion so‘m yoki qariyb ikki milliard dollar qiymatidagi mablag‘ yo‘naltirildi. Natijada 425 mingdan ziyod xotin-qizlar ishli bo‘lib, o‘z biznesini boshladi. Bu ko‘rsatkichlar zamirida daromad manbai, o‘z bilim va qobiliyatlarini yanada to‘liq ro‘yobga chiqarish imkoniyati, ertangi kunga ishonch paydo bo‘lgan odamlar hayotidagi ijobiy o‘zgarishlar mujassamdir.

Biz Belarus rahbariyatining xotin-qizlarning ishlab chiqarish va ilmiy faoliyat, tadbirkorlik va ijtimoiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish borasidagi izchil siyosatini, shuningdek, mamlakatda 2026-yilning “Belarus ayoli yili” deb e’lon qilinganini yuksak qadrlaymiz. Bularning barchasi ushbu sohadagi maqsad va yondashuvlarimiz yaqin ekanini yaqqol tasdiqlaydi.

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish sohasida ikki mamlakatning tajribasi va salohiyatidan birgalikda foydalanish ko‘p qirrali O‘zbekiston — Belarus hamkorligini yanada mustahkamlashga yangi turtki beradi deb ishonaman.

Qadrli do‘stlar!

Ushbu forumning boy dasturi sanoat kooperatsiyasi va investitsiyalar, agrosanoat majmuasi va biotexnologiyalar, raqamli yechimlar, turizm va ijtimoiy-gumanitar hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlarini qamrab olgan.

“O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan” va “Belarusda ishlab chiqarilgan” degan yorliqlar ostida milliy mahsulotlar ko‘rgazmalari nafaqat o‘z yutuqlarini namoyish etish, balki yangi hamkorlar topish uchun ham yaxshi imkoniyatdir.

Ikki mamlakat hukumatlari, parlamentlari, hududlari, banklari va ishbilarmon doiralari forum doirasida ilgari surilgan istiqbolli g‘oya va tashabbuslarni ro‘yobga chiqarishi hamda erishilgan kelishuvlarni o‘z vaqtida amalga oshirishni ta’minlashi lozim.

Yangi ish boshlayotgan tadbirkor ayollarni o‘qitish, mentorlik va elektron savdoni rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda mahsulotlarni uchinchi mamlakatlar bozorlariga olib chiqish alohida e’tiborga loyiqdir.

Forumning yakuniy qarorlari kelgusida birgalikda ishlash uchun mustahkam asos bo‘ladi deb umid qilamiz.

Ishonchim komil, O‘zbekiston va Belarus xotin-qizlarining bilimi, kuch-g‘ayrati va ishbilarmonlik borasidagi faolligi bundan buyon ham davlatlarimiz iqtisodiyotini rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish va ikki mamlakat o‘rtasidagi strategik sheriklikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Forumning barcha ishtirokchilariga samarali faoliyat va yangi yutuqlar tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

O‘QITUVCHI – MEHR DARYOSI, O‘QITUVCHI – EZGULIK BULOG‘I, O‘QITUVCHI – MA’RIFAT QUYOSHI!

Boshlanishi 1-betda

Darhaqiqat, keyingi o‘n yillik o‘zgarishlari, tub burilishlar, islohotlar ta’limning barcha bo‘g‘inini qamrab olmoqda. Asosiy va sezilarli ishlar, ayniqsa, ilk bo‘g‘in — maktabgacha ta’limda qamrov va sifat oshgani misolida ko‘zga yaqqol tashlanadi. Shu davrda 1 million 800 ming o‘rinli bog‘chalar barpo etildi.

Bog‘cha yoshidanoq bolalarda boshlang‘ich kompyuter savodxonligini shakllantirish uchun davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari zamonaviy kompyuter sinflari bilan ta’minlanmoqda. Bog‘cha va maktab o‘quv dasturlari tizimli ravishda yangilanyapti.

Maktabgacha ta’limda bog‘chani bolaning qobiliyati kashf etiladigan maskanga aylantirish borasida ilg‘or xorijiy tajriba asosida ta’lim berishga qaratilgan dastur ishlab chiqildi. 180 ming tarbiyachi va pedagog shu dastur bo‘yicha o‘qitilmoqda. Yil yakuniga qadar u barcha bog‘chada amaliyotga tatbiq qilinadi.

Shuningdek, har yili 50 nafar ilg‘or tarbiyachi xorijda stajirovka o‘taydi. Barcha bog‘chalar uchun 100 ta videokontent tayyorlanadi. Uch yillik dastur asosida davlat bog‘chalari elektron doska, kompyuter va rangli printerlar bilan jihozlanadi. Kelgusi yildan 2-3 yoshli farzandini oilaviy bog‘chaga bergan ishli onalarning badal puli byudjet hisobidan qoplanadi.

Bog‘cha tarbiyachilariga ishlab turib oliy ma’lumot olish imkoni yaratilgani esa yurtimizda ayollarga berilayotgan e’tibor, ularning munosib turmush kechirishi yo‘lidagi sa’y-harakatlarning yana bir namunasidir. Natijada joriy yilda ularning 7000 nafari oliygohlarga o‘qishga kirdi.

Kelgusi o‘quv yilidan tarbiyachilar uchun pedagogika oliygohlaridagi o‘qish muddati to‘rt yildan uch yilga qisqaradi. Bu imkoniyatdan bog‘chada kamida besh yil ishlagan tarbiyachi yordamchilari ham foydalana oladi.

Mamlakatimizda 1,5 million o‘rinli maktablar barpo etildi. Xalqaro tizim va yangi baholash mezonlari 12 yillik ta’lim tizimiga o‘tkazildi. Respublikamizda 6 yoshli bolalar uchun bir yillik maktabga tayyorlov yo‘lga qo‘yildi. Maktablarda dars berish uchun xorijdan pedagoglar jalb etilmoqda. Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan va xususiy ta’lim muassasalari faoliyati farzandlarimizning yanada bilimli bo‘lib ulg‘ayishida ayni muddao bo‘lmoqda.

Maktablarda muhandislik dasturlariga katta e’tibor qaratilayotgani ham diqqatga sazovor. Yangi avlod muhandislarini tayyorlash maqsadida maxsus muhandislik maktablari tashkil etilgan. Ularda STEM dasturlari asosida o‘qitish yo‘lga qo‘yilgani yuqori sinf o‘quvchilarini oliy ta’limga yo‘naltirishda qo‘l kelmoqda. Maktab paytidayoq xorijiy til va fan sertifikatiga ega o‘quvchilar soni 100 mingga yetgani, ushbu ko‘rsatkich 2,5 barobar ko‘paygani, bu yil qariyb 5000 bitiruvchi oliygohga kirishda eng yuqori ball to‘plagani ana shu islohotlar mevasidir.

Bundan tashqari, PISA reytingida 15 yoshli o‘quvchilar tabiiy fanlar bo‘yicha 32 pog‘ona yuqorilab, dunyoda 48-o‘rinni egalladi. Joriy yilning o‘zida iste’dodli yoshlar nufuzli olimpiadalarda 38 oltin, 82 kumush va 108 bronza medalni qo‘lga kiritdi. O‘zbekiston ilk bor mezbonlik qilgan xalqaro kimyo va informatika olimpiadalarida o‘quvchilarimiz yana 8 ta medalga sazovor bo‘ldi.

Maktablarni toza ichimlik suv va zamonaviy sanitariya sharoitlari bilan ta’minlash, chekka hududlardagi o‘quvchilar uchun bepul maktab avtobuslarini yo‘lga qo‘yish kabi ijtimoiy loyihalar faol amalga oshirilmoqda.

— Zamon o‘zgaryapti. Bolalarning qiziqishi, dunyoqarashi, axborot olish xususiyati ham o‘zgaryapti. Kecha samara bergan dars usuli bugun yetarli bo‘lmasligi mumkin. Shu sabab muallim muntazam o‘qishi va o‘z ustida ishlashi zarur, — dedi Prezidentimiz.

Endi pedagoglar uchun poytaxt yoki viloyat markaziga borib, bir oylik kursda majburiy o‘qish talabi bekor qilinadi. Uning o‘rniga kasbiy rivojlanish vaucherlari joriy etiladi. Muallim toifa sinovidagi natijasiga qarab, 18 soatdan 72 soatgacha ta’lim olish imkoniga ega bo‘ladi. Kursni va malaka oshirish joyini o‘zi tanlaydi. Bu o‘zgarish malaka oshirishni rasmiyatchilikdan amaliy ehtiyojga aylantirishga xizmat qilishi kerak.

Joriy yil 1-sinfga 800 ming bola qabul qilindi. Bu o‘tgan yildagiga nisbatan 10 foiz ko‘p. 2030-yilga borib esa ularning soni 1 millionga yetishi kutilmoqda. Har yili investitsiya dasturlari hisobidan 180-200 ming o‘quvchi o‘rni ochilmoqda.

Uchrashuvda o‘quv yuklamasi yuqori bo‘lgan 52 ta tumanda xususiy maktablar ochishni qo‘llab-quvvatlashning yangi moliyaviy mexanizmlari e’lon qilindi. Ushbu hududlarda maktab tashkil etish uchun 7 yillik 10 foizli imtiyozli kredit, ochish va jihozlash xarajatining 15 foizigacha, ko‘pi bilan 1,5 milliard so‘m subsidiya beriladi. Binosini maktabga ijaraga berganlar yer va mulk solig‘idan imtiyoz oladi.

Barcha tumanda bo‘sh davlat binolari xususiy maktab ochish uchun 10 yilga bepul ijaraga beriladi. Xalqaro akkreditatsiyadan o‘tish xarajatining yarmi qoplanadi. Farzandi xususiy maktabda o‘qiydigan ota-onalar uchun soliq olinmaydigan daromad chegarasi 3 milliondan 6 million so‘mga oshiriladi. Bu oilalarga yiliga 6-7 million so‘m tejash imkonini beradi.

Davlatimiz rahbari yaqinda Toshkent shahrida ko‘p funksional inklyuziv resurs maktabi ish boshlaganini aytdi. U yerda ko‘rish, eshitish yoki harakatlanishida



nuqsoni bo‘lgan, shuningdek, ruhiy rivojlanishda qo‘shimcha yordamga muhtoj bolalar sog‘lom tengdoshlari bilan bir muhitda o‘qib, tarbiya oladi. Yil oxirigacha bunday maktablar Xorazm, Jizzax va Samarqand viloyatlarida, kelgusi ikki yilda esa respublikamizning barcha hududida ochiladi.

Yangi formatda o‘tkazilgan “Yil o‘qituvchisi” tanlovining 208 nafar tuman va shahar g‘olibiga ilk bor 616 million so‘mdan mukofot berildi. Prezidentimiz bunday e’tirof yanada ko‘p muallimni yuksak marralarga intilishga undashini ta’kidladi.

Ayniqsa, mazkur tanlov kelasi yildan 14 ta hududdagi bog‘cha tarbiyachilari va texnikum ustalari o‘rtasida ham o‘tkazilishi, g‘oliblar munosib mukofotlanishi ta’lim sohasi vakillari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini kuchaytirishi shubhasiz.

Yoshlarni kasbga yo‘naltirish bugunning eng ustuvor va dolzarb vazifalaridan. Shu bois, so‘nggi paytlarda ushbu yo‘nalishdagi ishlar ham sezilarli darajada o‘zgardi. Oxirgi ikki yilda 104 ta texnikumga Germaniya, Buyuk Britaniya, Shveysariya va Xitoyning xalqaro dasturlari olib kirildi. 25 ming korxona bilan hamkorlik natijasida 100 mingdan ziyod yosh o‘qish barobarida, daromad topish imkoniga ega bo‘ldi.

Shu yildan dual ta’limda kasb o‘rganayotgan yoshlarga 1 million 300 ming so‘mgacha stipendiya to‘lanmoqda. Bu yil 9-sinfni bitirgan 220 ming o‘quvchi texnikumga jalb qilindi.

Xalqaro dasturlar bundan keyin ham bosqichma-bosqich barcha texnikumda joriy etiladi. Buning uchun ustalarni tayyorlash va rag‘batlantirish mexanizmi ham kuchaytiriladi. Xususan, kelgusi yildan xalqaro kasb sertifikatiga ega ustaga 50 foiz ustama to‘lanib, sertifikat xarajati to‘liq qoplanadi. Har yili texnikumlarning 500 ustasi Germaniya, Shveysariya, Turkiya va Xitoyda stajirovka o‘taydi.

“Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari” kasb tanlovi esa ushbu yo‘nalishda samara ko‘rsatdi. Ilk bor o‘tkazilgan tanlovda 170 ming o‘quvchi ishtirok etdi va g‘oliblarni tayyorlagan 120 ustaga 40 million so‘mgacha pul mukofoti berildi. Endi mazkur tanlov har yili tashkil etiladi. G‘oliblar esa 2028-yili Tokiodagi kasblar bo‘yicha o‘tkaziladigan jahon chempionatiga tayyorlanadi.

Shu bilan birga, bundan buyon mintaqaviy va xalqaro kasb tanlovi g‘olibini tayyorlagan ustaga 100 million so‘m, jahon miqyosidagi nufuzli musobaqa g‘olibini tayyorlagan ustozga esa 200 million so‘m mukofot beriladi.

Xususiy texnikum tashkil etadigan tadbirkorlar soliq imtiyozi va yer narxidan chegirmaga ega bo‘ladi. Kelgusi o‘quv yilidan sanoat, servis va infratuzilma kabi muhim sohalarga kadr tayyorlaydigan xususiy texnikum o‘quvchilarining 50 foiziga davlat granti ajratiladi.

Oliy ta’limdagi o‘zgarishlar ko‘lami ham ancha keng. Xususan, qabul kvotalarining ko‘payishi va xususiy sektorga katta e’tibor qaratilishi tufayli bugun talabalar soni 1 million 600 mingga yetdi. Yettita oliygoh 17 ta fan bo‘yicha nufuzli xalqaro reyting-larga kirdi. Raqobat oshib, ta’lim jarayoni zamonaviylashdi.

Endi oliygohlar xalqaro tan olinadigan, ilg‘or standartlarga asoslangan milliy ta’lim dasturlarini ishlab chiqishga o‘tadi. Bunday tajriba yoshlarga xalqaro talabga javob beradigan bilim, malaka beradi. Maqsad xorijiy standartlarni milliy ta’lim mazmuni bilan uyg‘unlashtirib, talabani jahonda tan olinadigan andozaga muvofiq tayyorlashdir.

Qolaversa, kelgusi yildan “korxona — oliygoh — maqsadli kadr” tizimi 75 ta oliy ta’lim muassasasida, 2028-yildan barcha oliygohda amal qila boshlaydi. Bunda ish beruvchi o‘ziga kerakli nomzodni o‘qitish bo‘yicha oliygohga buyurtma beradi. Nomzod testsiz, suhbat asosida ishga qabul qilinadi.

Korxona tomonidan biriktirilgan ustozga oliygoh pedagoglar oyligiga teng miqdorda qo‘shimcha haq to‘laydi. Korxona oliygoh yoki talaba yashaydigan joydan uzoq bo‘lsa, ijara xarajati qoplanadi. O‘qish va ishda yaxshi natija ko‘rsatgan talabalar ikkinchi kursdan davlat grantiga o‘tadi.

Katta avlod vakillari yaxshi eslaydi: mustaqilligimizning ilk yillarida moddiy ta’minot bilan bog‘liq muammolar, ta’limdan tashqari ishlarga jalb etilishi natijasida maktablarda o‘qituvchi tanqisligi kuzatildi. Ayniqsa, erkak o‘qituvchilar oilasini boqish uchun bozorlarga chiqib ketdi. Bir so‘z bilan aytganda, o‘qituvchi qadrsizlandi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida ko‘rilgan samarali choralar natijasida sohaga ko‘plab malakali pedagoglar kirib keldi. Oxirgi besh yilda xalqaro va milliy sertifikatga ega o‘qituvchilar soni 29 mingdan 143 mingga yetgani, pirovardida maktablarda o‘qituvchi yetishmasligi uch barobar kamaygani ham fikrimiz dalilidir.

Hozir 40 ming muallim 1000 dollardan, yana 1500 nafari 2000 dollardan yuqori maosh olmoqda. Qolaversa, zamonaviy metodika joriy qilayotgan, olimpiada g‘oliblarini tayyorlayotgan ustozlarning mehnati munosib rag‘batlantirilmoqda. Bunga misol qidirib uzoqqa borish shart emas. Zero, Samarqandda olimpiada chempioni bo‘lgan shaxmatchilarimiz murabbiylariga shu hafta 50 ming dollardan pul mukofoti berildi.

Prezidentimiz ma’rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Maktab — taraqqiyotning boshlang‘ichi, madaniyat va saodatning darvozasi” degan so‘zlarini yodga oldi. O‘g‘il-qizlarimiz uchun bu darvozani yanada keng ochish, ularning iqtidorini ro‘yobga chiqarish Uchinchi Renessans g‘oyasining o‘zagidir.

Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar rivojlangan hozirgi davrda maktab bitiruvchisi katta hayotga til va kasbni egallamay chiqolmaydi. Aks holda, o‘z o‘rnini topolmay qiynaladi. Shu bois, Prezidentimiz bolani maktabdan kasb va til o‘rgatmay chiqarish uning kelajagiga beparvolik emasmi deya savol qo‘yar ekan, direktorlar o‘quvchilar qaysi til va kasbni o‘rganayotgani, bitirganda qanday hunarga ega bo‘lishi haqida jiddiy o‘ylashi zarurligini qayd etdi.

Iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o‘sish modeliga o‘tkazish davr talabi, raqobatda yutishning asosiy sharti. Buning uchun esa o‘quvchilar matematika, fizika, kimyo va biologiyani maktabdanoq chuqur o‘zlashtirishi zarur. Shu maqsadda sinfda 25 nafardan ortiq o‘quvchi bo‘lsa, ushbu fanlar ikki guruhga bo‘lib o‘qitiladi.

Fundamental fanlar o‘qituvchilari uchun rag‘batning yangi tizimi joriy etilishi, xususan, milliy sertifikatga ega pedagoglarga 50 foiz ustama to‘lanishi, har yili 208 ta tuman va shaharning lider o‘qituvchilariga 30 million so‘mdan mukofot berilishi, shuningdek, 1000 nafar o‘qituvchi xorijga stajirovka o‘tash uchun yuborilishi ham ta’lim sifatini oshirish nuqtayi nazaridan uchrashuvda ilgari surilgan muhim yangiliklardan bo‘ldi.

Bundan tashqari, kamida 15 yillik stajga ega pedagoglarning farzandlariga oliygoh kontrakti uchun foizsiz kredit ajratiladi. Xorijiy va milliy sertifikat olgan muallimlarning imtihon xarajati to‘liq qoplanadi. Xorazmiy, Farg‘oniy, Beruniy, Ibn Sino, Mendeleyev nomidagi xalqaro va mintaqaviy olimpiadalar g‘oliblarini tayyorlagan pedagoglar to‘g‘ridan to‘g‘ri oliy toifa oladi. Prezidentimiz ushbu tashabbuslar qariyb 100 ming o‘qituvchiga munosib rag‘bat bo‘lishiga ishonch bildirdi.

Uchrashuvda dunyoda bilim yaratish, axborot tarqatish va mehnat qilish usullari shiddat bilan o‘zgarayotgani qayd etildi. Dunyo shiddat bilan rivojlanib borar ekan, yangidan yangi ixtirolar, dasturlar yaratilaveradi.

Prezidentimiz tantanali uchrashuv ishtirokchilariga ta’lim va ilm-fan fidoyilarining bir guruhini davlat mukofotlari bilan taqdirlash to‘g‘risidagi farmonni imzolaganini ma’lum qildi. Ular orasida pedagoglar bilan birga ta’lim rivojiga hissa qo‘shayotgan tadbirkorlar va xorijlik hamkorlar ham bor. Uchrashuvda mukofotlar o‘z egalariga topshirildi.

Dilshod ULUG‘MURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Yangi O‘zbekiston yoshlarini “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” deb yashaydigan avlod sifatida kamol toptirishning beqiyos ahamiyatini yaxshi tushunadigan siz, hurmatli ustoz va murabbiylar boy bilim va tajribangiz, iste’dod va mahoratingiz bilan bu jarayonlarda faol ishtirok etasiz deb ishonaman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti









SHOGIRDLAR YUTUG‘I – MEN UCHUN KATTA BAXT

Bugun men cheksiz hayajon bilan yana bir karra o‘qituvchilik yo‘lini tanlab xato qilmaganimni anglab turibman. O‘zbekiston Respublikasi xalq o‘qituvchisi bo‘lishdek ulkan sharafga, necha yillik orzumga yetganim xuddi tushdek tuyulayotgani ham chin. Axir bunday e’tirofga erishishni tasavvur ham qilmagandim-da. Bu e’tiborga munosib ko‘rilganimni nafaqat shaxsiy mehnatimga berilgan yuksak baho, balki butun umrini millat kelajagi, yosh avlod ta’limi va tarbiyasiga bag‘ishlagan minglab fidoyi ustozlarga ko‘rsatilayotgan yuksak ehtirom ifodasi sifatida qabul qilaman.



Azimboy SAFARBOYEV,
Amudaryo tumanidagi 36-umumiy o‘rta ta’lim maktabining matematika fani o‘qituvchisi,
“O‘zbekiston Respublikasi xalq o‘qituvchisi” faxriy unvoni sohibi

Qoraqalpog‘istondagi qaysi maktabga bormang, matematika o‘qituvchilari orasida, albatta, shogirdlarim bor. Aslida, mana shuning o‘zi bir baxt, katta mukofot. Ayni kunda oliy ma’lumotli mutaxassis bo‘lgan shogirdlarim soni 2000 nafardan oshdi. Ular orasida 600 ga yaqini matematika, fizika o‘qituvchisi. Maktabimizda mehnat qilayotgan 10 ta matematika o‘qituvchisining ham 6 nafari shogirdim. Ularning bo‘ylari bo‘yimdan o‘tib, men bilan barobar, bir safda ishlab kelayotganidan g‘ururlanaman.

Maktabimizdagi 10-11-variativ sinflarga matematikadan saboq beraman. Bitiruvchilarimiz 8 yildan buyon har yili 100 foizli natija bilan oliy ta’limga qabul qilinayotgani ko‘ksimni faxrga to‘ldiradi. Joriy yil ham bu borada 100 foizli natijaga erishdik. 25 o‘quvchimizning barchasi talaba bo‘ldi.

Aslida, bu bir o‘qituvchi shundoq ham qilish kerak bo‘lgan ish, yosh avlod oldidagi burch. Biroq o‘z vazifam doirasidagi mehnatlarim ham yuqori baholanib, yuksak unvonga munosib ko‘rilganimdan boshim ko‘kka yetdi. Ustozlar bayrami arafasida “O‘zbekiston xalq o‘qituvchisi” unvoniga sazovor bo‘lish hayotimdagi eng katta bayram sovg‘asi bo‘ldi. Bu unvon nafaqat menga, balki maktabim jamoasiga, butun qoraqalpog‘istonlik hamkasblarimga berilgan mukofotdir. Fursatdan foydalanib, ularning barchasini kasb bayramlari bilan samimiy qutlayman.

Bugun yurtimizda ta’lim sohasiga, o‘qituvchi va murabbiylar mehnatiga bo‘layotgan jiddiy e’tibor, pedagog sha’ni va maqomini yuksaltirishga qaratilgan ezgu islohotlar biz, ustozlarga yanada katta kuch va ilhom bag‘ishlamoqda. Bunday qarash har bir pedagogdan o‘z kasbiga sadoqat, izlanish va fidoyilikni talab etadi. Shunday ekan, ko‘ksimga taqilgan unvonni ham zimmamdagi mas’uliyatning oshishi deb bilaman. U menga yanada dolzarb vazifalarni, katta maqsadlarni yuklaydi. Bunday ulug‘vor nomga munosib bo‘lish uchun bundan keyin ham bor bilim va tajribamni, butun kuch va g‘ayratimni yosh avlod ta’limi va tarbiyasiga bag‘ishlayman. Zero, men uchun eng katta baxt — shogirdlarim yutuqlari. Ularning ilmli, ma’rifatli, har bir harfni “gapirtirib”, darsni ertak tarzida o‘taman. Jarayonda o‘quvchilarim ham faol ishtirok etadi. Ularning darslarni o‘zlashtirishini kuzatib, yangi O‘zbekistonning porloq kelajagini ko‘rganday bo‘laman.



Vatanga sadoqatli inson bo‘lib kamol topganini ko‘rish har qanday mukofotdan ulug‘roqdir.

Ishonamanki, bugun yurtimiz maktablarida dars berayotgan har bir ustozning qalbida bitta buyuk maqsad bor: bilimli, yuksak ma’naviyatli, ertangi kunga ishonch bilan qadam qo‘yadigan avlodni tarbiyalash. Zero, ustozning eng buyuk merosi — uning shogirdlari, eng ulug‘ maqsadi — Vatanining porloq kelajagi.

O‘N BIRINCHI QALDIRG‘OCHLARIM QANOT YOZDI

Oilamizda barchamiz o‘qituvchimiz. Bu faoliyatimiz yuzasidan o‘zaro suhbat qurish, ta’limdagi islohotlar borasida fikr almashishimizda juda qo‘l keladi. Ayniqsa, biz, o‘qituvchilarga ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlik, kuchli e’tibordan juda xursandmiz. Xususan, bu yil ilk bor yangicha shaklda o‘tkazilgan “Yil o‘qituvchisi” tanlovidan boshimiz osmonga yetdi. G‘oliblar taqdirlandi.



Rahima HAKIMOVA,
Namangan shahridagi 4-umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi,
“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan xalq ta’limi xodimi” faxriy unvoni sohibi

Ayni paytda ularning barchasi o‘z kasbi sabab qanchalar baxtli ekanini his qilish qiyin emas. Eng quvonarlisi shuki, endi yosh avlod orasida ham o‘qituvchilikka qiziqish, to‘g‘rirog‘i, intilish keskin ortadi. Chunonchi, bundan 10 yillar avval ham yoshlarda bu kasbga qiziqish so‘nib, ayniqsa, yigitlarning hafsalasi pir bo‘lgandi. O‘sha kezlar maktablarda o‘qituvchining maoshi kamligidan erkak o‘qituvchilar boshqa sohalarga o‘tib ketgani sir emas.

Bugun esa erkak o‘qituvchilar yana maktablarga qaytib, aksariyati yuqori maosh bilan ro‘zg‘or tebratyapti. Tanlovlarda ham ularning ulushi ortib borayotganini ko‘rib xursand bo‘lamiz.

Davlatimiz rahbari o‘qituvchi va murabbiylar bilan uchrashuvda o‘qituvchilar uchun yana ko‘plab tanlovlar, mukofotlar joriy etilishini aytdi. Endi 4-sinf o‘quvchilari o‘rtasida ham fan olimpiadalari o‘tkazilishi, tuman bosqichi g‘oliblari kompyuter bilan taqdirlanishini o‘quvchilarimga hayajon bilan aytib berdim. Biz, ustozlarga esa natijaga qarab 10 million so‘mdan 100 million so‘mgacha pul mukofoti beriladigan tizim yaratilyapti. Albatta, bu katta imkoniyat. Yaxshi niyat qilgan, astoydil intilgan ustoz mehnatining samarasini ko‘ryapti. O‘qituvchiga ham uy-joy beriladigan davr kelganini amalda isbotlayapti. Yosh, g‘ayratli ustozlar kechaning o‘zidanoq harakatga tushgani aniq.

Oldimga ko‘plab yosh o‘qituvchilar maslahat so‘rab keladi. Ularga birinchi o‘rinda bolalarga mehr berishi kerakligini aytaman. Yutuqlarga yo‘l kasbga, bolaga mehrda deb bilaman. Mehr bersangizgina sizga ham mehr ko‘rsatiladi, qadrlanasiz.

Ko‘p yillik tajribamdan kelib chiqib, o‘qituvchilik deganda, avvalo, shinam va ozoda sinfxona, partalarni to‘ldirib o‘tirgan bolalar va ularga mehr bilan bor bilimini berishga urinayotgan ustozni tushunib yetdim. O‘qituvchi shunday muhit yaratishi kerakki, bolalar maktabga xursand holda kelib, xursand holda ketsin. Shuningdek, ustoz har bir bolaning alohida xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlashi kerak.

Faoliyatimda shaxsiyat masalasiga jiddiy e’tibor beraman. Har bir bolaning o‘ziga xos yutug‘ini ko‘rsatib, qo‘limdan kelganicha rag‘batlantirishga harakat qilaman. O‘ttiz ikki o‘quvchim bor. Hammasining ota-onalari bilan har kuni bog‘lanaman va har kungi holat haqida hisobot beraman. O‘zlashtirishi past bolalar bilan alohida shug‘ullanaman. Ularni ham yaxshi o‘qiydigan o‘quvchilar qatoriga qo‘shgim keladi. Buning uchun vaqtimni, kuchimni ayamayman. Dars berishga doir qanday yangilik bo‘lsa, albatta, qo‘llab ko‘raman. Shuning uchunmi, o‘quvchilarimning bilim samaradorligi yuqori va bu ko‘rsatkichni doimo saqlab qolishga harakat qilaman.

Ayni paytda o‘n birinchi qaldirg‘ochlarimni o‘qityapman. O‘nta boshlang‘ich sinfimni yuqori sinfga kuzatganman. Bugun ularning aksariyati turli kasblarda ishlab yuribdi. Quvonarlisi, hozirgacha xabar olib turishadi. Mendan minnatdor ekanini aytganlarida, bir olam quvonchga to‘laman. Ularga o‘quvchilik paytida uqtirganimdek, qayerda ishlamasin, avvalo, mas’uliyatli bo‘lishi kerakligini tayinlayman. Chunki mas’uliyatli inson yaxshi, ishonchni oqlaydigan xodim bo‘la oladi. Hamma yutuqning kaliti mas’uliyat, tartibda deb bilaman.

Menga katta ishonch va umid bilan berilgan unvonni esa ko‘plab fidoyi, jonkuyar o‘qituvchilarning unvoni deb qabul qilaman. Chunki bunday ustozlarning barchasi yuksak unvonga, mukofotlarga munosib.

UCHINCHI RENESSANS BUNYODKORI DEGAN MAS’ULIYAT BILAN DARS O‘TYAPMIZ

O‘qituvchilik oddiy kasb emas. U mas’uliyat, hozirjavoblik, jonbozlik, fidoyilikni talab qiladi. Shu bois, muallim mehnati igna bilan quduq qazishga qiyoslanadi. Nigohi hayratga to‘la, maktabga bir oz hayajon, hadik bilan qadam qo‘ygan bolakayning ko‘ngliga yo‘l topish, uni bilim olishga qiziqtirib, jamiyatda o‘z o‘rni, mustaqil fikri va dunyoqarashiga ega shaxs etib kamolga yetkazishgacha bo‘lgan yo‘l naqadar og‘ir, mashaqqatli ekanini sohaga daxldor insonlar juda yaxshi biladi.



Saodat G‘OFUROVA,
Marg‘ilon shahridagi 29-maktab o‘qituvchisi,
I darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni sohibi

Shu sharafli kasbga mehr qo‘yib, Marg‘ilon shahridagi 29-maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bo‘lib ishlayotganimga 43 yil to‘ldi. Bu yillar silsilasida ko‘plab talato‘plarni boshdan o‘tkazdik. Marg‘ilon shahrida yashab, mehnat qilsak-da, hasharchilar qatori erta bahordan kech kuzga qadar qo‘shni tumandagi dala yumushlariga jalb etilardik. Yomg‘irli, izg‘irin kunlarda paxta paykallarida kun kechirganimiz kechagidek yodimda. Misqollab ishlab topgan maoshimizni olish uchun bankda navbat kutardik. Bu kunlar ortda qolgani rost bo‘lsin.

Prezidentimiz tashabbusi bilan o‘qituvchilarning jamiyatdagi mavqeini yuksaltirishga qaratilgan katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Pedagog sohaning qaysi bo‘g‘inida xizmat qilmasin, millat bolalarini tarbiyalaydi, o‘qitadi. Ularga kasb-hunar o‘rgatadi, ko‘nikma va malakasini, ma’naviyati, ma’rifatini oshirishga xizmat qiladi. Davlatimiz rahbari har bir chiqishida o‘qituvchi va murabbiylar Uchinchi Renessans bunyodkorlari, ma’rifat, ma’naviyat bog‘bonlari ekanini bot-bot ta’kidlaydi. Bu bizga kuch, ishimizni yanada mehr bilan bajarishga shijoat beradi. Ayni damda shunday yuksak maqomga munosib bo‘lish mas’uliyatini ham teran his etamiz.

Bugungi o‘qituvchi tom ma’noda kasbining fidoyisi bo‘lishi uchun barcha imkoniyat yaratib berilgan. Muallimlarning bilimi va mahorati shaffof baholanib, oylik maoshi bosqichma-bosqich oshirilmoqda. Pedagoglarning farzandlari oliy ta’limda o‘qiganda 30 foiz chegirma va boshqa imtiyozlar berilmoqda. Yoshlar ta’lim-tarbiyasi yo‘lida mehnat qilib, elda hurmat, e’tibor topdim. 2018-yili “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi a’lochisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandim. Mustaqilligimizning 35 yilligi munosabati bilan esdalik nishonga munosib ko‘rildim. Mana, 1-oktabr — O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan Prezidentimiz I darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan mukofotladi. Uzoq-yaqindan kelayotgan qutlovlarning oxiri yo‘q. Xushxabarni eshitib, ko‘zimga quvonch yoshi keldi. Axir bu o‘qituvchi mehnatiga berilgan yuksak baho, e’tibor!

Hozir ilk saboqni mendan olgan o‘quvchilarim turli sohalarda xizmat qilyapti. Ular maktabga kelib: “Ustoz, siz bergan ta’lim-tarbiya tufayli shu darajaga erishyapmiz”, deganida ko‘nglim faxr-iftixorga to‘ladi, charchoqlarni unutaman. Bugungi yoshlar qiziquvchan, bilimga chanqoq. Shu bois, har bir mashg‘ulotni esda qolarli, yangi pedagogik texnologiya, amaliy ko‘rgazmalar asosida o‘tishga harakat qilaman. Har bir raqam, har bir harfni “gapirtirib”, darsni ertak tarzida o‘taman. Jarayonda o‘quvchilarim ham faol ishtirok etadi. Ularning darslarni o‘zlashtirishini kuzatib, yangi O‘zbekistonning porloq kelajagini ko‘rganday bo‘laman.

DORILAMON KUNLAR SAODATI

Niyozmuhammad muallim kundalik odatiga ko‘ra, ertalabdan ishga borish harakatini boshladi. Chiroyli, dazmollangan kiyimlarini kiyib, bo‘yinbog‘ taqdi. Ko‘zgu oldiga kelib, allaqachon qirov tushgan sochlariga qaradi. Bir oz vaqtdan so‘ng birinchi soat darsi borligi yodiga tushib, shoshildi. Qo‘liga qadrdon papkasini olib, ichiga yana bir bor nazar soldi. Barchasi joyida. Darsni yaxshi o‘tish, bolalarni zeriktirib qo‘ymaslik uchun yo‘l-yo‘lakay mavzuni takrorlab bordi.

Maktab darvozasiga yaqinlashgan muallim hayratlanib atrofga boqdi. Kirish joyining ikki tomonida turli rusumdagi mashinalar joy olgandi. Birma-bir sanab chiqdi, 21 ta! Bunisi Anvarniki, bunisi Azizniki... Ikkita yangi mashina kimga tegishli ekanini bilmadi. Xullas, bularning bari shu maktab o‘qituvchilarga tegishli. E’tibor qilmas ekan, kasbdoshlarining aksari yangi ulovda yurarkan. Hisoblab ko‘rsa, shu dargohda ishlovchilarning deyarli ellik foizida yengil mashina bor. “Muallimlar ham mashina minadigan vaqt kelibdi-ku”, deb qo‘ydi o‘ziga o‘zi: “shu kunlarga yetkazganingga shukr”.

Maktab ostonasiga qadam tashlarkan, ilk bor o‘qituvchi bo‘lib ishga kelgan yillari yodiga tushdi. Eh-ye, u vaqtlarni eslasa, yuragi orqaga tortadi. O‘shanda 1982-yil kuzi edi. Oliygohni bitirib, qishlog‘iga qaytgan yoshgina Niyozmuhammad Panjiyev quchog‘ida bir olam orzular bilan maktabga ishga kirdi. Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi bo‘lgani bois, ijodga, ayniqsa, she’riyatga qiziqishi yuqori edi. O‘zicha, boshqalardan o‘zgacha tarzda dars o‘tish, namunali bo‘lishga intilardi. Afsuski, bu ishtiyoqi uzoqqa cho‘zilmadi.

Dastlab hamkasblari davrasiga o‘tirib, suhbatiga quloq tutdi. Tajribali ustozlardan nimadir o‘rganaman degan edi. Ammo muallimlar u o‘ylaganidek dars mashg‘ulotlari haqida emas, turmush tarzi, turli muammolar haqida gaplashishardi. Birovi uyidagi yetishmovchilik, yana biri qarzi ko‘payib qolgani, boshqasi sog‘lig‘i haqida gurung berardi. Bu holat deyarli har kuni davom etardi. Yosh muallim bir-ikki yilda o‘zi ham dardlashadigan bo‘lib qoldi. Boisi, endi uning oilasi bor. O‘ziga yarasha tashvishi ortgandi. Lekin maoshi oydan oyga yetmay, qarzdor bo‘lib qolardi. Buyog‘i hali o‘quv yilidan oldin paxta terimi boshlanardi. Shu bois, dekabr oyining yarmiga qadar dalada sarsonu sargardon yurishga majbur edi. Oradan uch-to‘rt oy o‘tmasdan yana dalaga ishga borish kerak. Bu holatda ustozlar qachon dars o‘tadi, bolalar qachon o‘qiydi? Bu savollar javobsiz edi.



“Bir paytlar uch-to‘rt oylab maoshsiz ishladik, — deydi N.Panjiyev. — Topganimiz o‘zimizdan ortmay qoldi. Asta-sekin erkak o‘qituvchilar maktablarni tashlab ketishga majbur bo‘ldi. Boshqa iloj ham yo‘q edi. Sanoqliginalari qoldi. To‘g‘risi, ancha yillar ta’lim-tarbiya chetga surilib, faqat qishloq xo‘jaligi bilan ovora bo‘lib qoldik. Yig‘ilishlarda ham faqat paxta, chopiq, dala tozalash so‘ralardi. Maktab direktorlari ta’lim sifati emas, dala ishlarida faol ishtirok etmagani uchun intizomiy jazo olardi. Ba’zilar shu sabab ishdan haydaldi.

Iqtidorli, o‘z fani bilimdoni bo‘lgan o‘qituvchilarning bilim darajasiga emas, dala ishlaridagi ishtirokiga qarab baho berildi. Oqibatda yaxshi mutaxassislar sevimli kasbini tashlab ketdi. O‘sha paytlarda na o‘quv xonalariga, na shart-sharoitga e’tibor qaratildi. Qishda sinf xonalar sovuq, yozda issiq. Darsliklar yetishmasdi. Hech kim ta’lim sifati, samaradorlik haqida so‘ramadi. Hatto 1-oktabr — O‘qituvchi va murabbiylar kuni bayramini ham paxta dalasida o‘tkazishardi.

Ochig‘i, o‘qituvchilik kasbi yildan yilga og‘irlashib bordi. Ko‘pchilik yaxshi eslaydi. Ilgari bank plastik kartasiga tushgan oylik maoshimizni emin-erkin ishlata olmasdik. Bozorda terminal, ko‘chada hozirgidek bankomat yo‘q edi-da. Noiloj ish haqimizning 20 foizini berib, yana iltimos bilan naqd qilib olardik. Dardingni birov eshitmaydi. Mashina tugul, yangi kiyim olishga qurbimiz yetmasdi. Bugun o‘qituvchining yelkasiga oftob tegdi deya baralla aytish mumkin. Oyligi otning kallasidek. Har kuni bir muallim mashina oladi. Yangi uy-joy qurmoqda. Turmushi yaxshilandi. Oilasiga xotirjamlik qaytdi. Misol uchun, bizning maktabda hozir 15 o‘qituvchi ming dollar, 4 nafari 2 ming dollardan ziyod maosh olyapti. Essiz yoshligim, deyman. Bularga havasim keladi. Shuncha imkoniyat bor, endi faqat ishlash kerak.

Yana bir gap. Bir paytlar maktabda sanoqligina erkak o‘qituvchilar qolgandi. Bari turmush tashvishi bilan boshqa ishga o‘tib ketgandi. Yoshlarga: “O‘qituvchi bo‘lasanmi?” desangiz, teskari qarab ketardi. Shukr, bugun yigitlar o‘qituvchi bo‘lish orzusida oliygohlarda tahsil olmoqda. Maktablarda erkak muallimlar safi kengaymoqda”.

Niyozmuhammad muallim Mirishkor tumanidagi 20-maktabida 44 yildan buyon yoshlarga saboq berib keladi. Fidoyiligi bois, bir qator tanlovlarda ishtirok etib, faxrli o‘rinlarni qo‘lga kiritgan. Shuningdek, u 2017-yilda “Shuhrat” medali bilan taqdirlangan. Ayni paytda o‘quvchilarning sevimli muallimi bo‘lish bilan birga jamoasining malakali ustozi sifatida yosh hamkasblariga o‘rnak bo‘lib kelmoqda.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Dunyoda tobora keskinlashayotgan vaziyat, xalqaro transport yo‘laklaridagi xavf-xatarlar, jahon energiya bozoridagi beqarorlik davlatlarni energetika siyosatiga yangicha nigoh bilan qarashga majbur qilmoqda.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 1-oktabr, 204-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Kun mavzusi



SUYULTIRILGAN GÁZ TA’MINOTI: iste’molchilarda tanlov imkoniyati paydo bo‘lmoqda

Shu kunlarda yurtimiz bo‘ylab kuz-qish mavsumiga hozirlik yuqori pallaga kirgan. Aslida, tizim tashkilotlari bu borada yil davomida ishlaydi. Sovuq mavsumi yaqinlashgach esa aholini gaz bilan uzluksiz ta’minlash, ehtiyojning me’yordan ortishi va tabiat hodisalari bilan bog‘liq holatlarga tayyorgarlik choralari kuchayadi. Maqsad — har bir oila kuz-qish mavsumini issiq uyda, gaz ta’minoti bilan bog‘liq muammolarsiz o‘tkazsin.



Ma’rufjon XO‘JAYEV,
“Hududgazta’minot” AJ boshqaruvi raisi

Yurtimizning tabiiy gaz tarmoqlari yetib bormagan hududlarida aholi faqat suyultirilgan gazdan foydalanadi. Gaz ballonlarini yetkazib berish yaqin yillargacha asosiy muammolardan biri bo‘lgan. Hozir ham bu borada ayrim kamchiliklar yo‘q emas.

Ana shu kamchiliklarni bartaraf etish, aholini suyultirilgan gaz bilan o‘z vaqtida va yetarli miqdorda ta’minlash, xizmatlarni qulaylashtirish, resurslardan samarali foydalanish bugun tizim oldida turgan muhim masalalardan sanaladi. Samaradorlikni oshirish uchun esa zamonaviy yondashuvlar, ilg‘or texnologiyalar zarur. Ba’zilar “suyultirilgan gazni yetkazib berish uchun qanday zamonaviylik kerak ekan, mashinaga solib, aholiga olib borib bersa bo‘ldi-da”, deyishi mumkin. Biroq bu xato tushuncha. Gaz ballonining xonadonga o‘z vaqtida yetib borishi ortida ishlab chiqarish, xarid, tashish, saqlash, to‘ldirish va taqsimlashdan iborat katta jarayon turadi. Bu zanjirning har bir bo‘g‘inidagi aniq hisob va muvofiqlashtirilgan ish esa iste’molchiga ko‘rsatiladigan xizmat sifatida aks etadi.

Aynan shu jarayonlarga mutlaqo zamonaviy mexanizmlar joriy etilmoqda. Davlatimiz rahbarining shu yil 12-sentabrdagi “Aholini suyultirilgan gaz bilan ta’minlash tizimini isloh qilish va bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ushbu vazifalarni amalga oshirishning yangi bosqichini belgilab berdi. Qaror bilan tarmoqqa xususiy sektor kirib kelyapti, raqamlashtirish ko‘rsatkichlari oshyapti, suyultirilgan gazning savdoga chiqarilishi va sotuvida yangi tartiblar joriy etilyapti. Xullas, o‘zgarish va yangiliklar ko‘p va hammasi aholiga suyultirilgan gazni tez va sifatli yetkazib berishga qaratilgan.

Bundan o‘n yil oldin aholiga suyultirilgan gazni yetkazib berish u yoqda tursin, hatto ta’minotni tashkil etish va hisobini yuritishda ham tizimli yondashuv yo‘q edi. Ta’minot jarayonlarini tezkor kuzatish va hududlardagi vaziyatni yagona ma’lumotlar asosida baholash imkoniyatlari bugungidek emasdi. Bu jarayonni muvofiqlashtirishni qiyinlashtirgan.

Keyingi yillarda avtomatlashtirish, raqamlashtirish va moddiy-texnik bazani mustahkamlash hisobiga ta’minotni boshqarish imkoniyatlari ancha kengaydi. Xususan, “E-Gaz” dasturi orqali gaz ballonlari, transport, inshootlar va iste’molchilarga oid ma’lumotlarni hisobga olish, hisobotlarni shakllantirish hamda jarayonlarni onlayn kuzatish yo‘lga qo‘yildi. Bu esa ma’lumotlarni tezkor tahlil qilish va ta’minotni tashkil etishda ularga tayanish imkonini bermoqda.

Raqamlashtirishning ahamiyati faqat ma’lumotlarni elektron shaklga o‘tkazish bilan cheklanmaydi. U qayerda qanday ehtiyoj borligini ko‘rish, resurslar harakatini kuzatish va xizmat ko‘rsatishdagi kamchiliklarni aniqlash uchun zarur. Natijada ishni rejalashtirish va ijroni nazorat qilishda aniq ma’lumotlarga asoslangan yondashuv kuchaymoqda.

2026-yil boshidan yurtimizning barcha hududlarida suyultirilgan gaz ta’minotida Face ID tizimi to‘liq ishga tushirildi. Gazni qabul qiluvchining shaxsini tasdiqlashga xizmat qiluvchi ushbu tizim maishiy gaz ballonlarini aholiga manzilli yetkazib berish, hisobning ishonchliligini oshirish va inson omilini kamaytirishda amaliy samara bermoqda. “E-Gaz” platformasidagi raqamli hisob va Face ID orqali tasdiqlash ta’minot jarayoni shaffofligini oshirib, suiiste’mol va korrupsion holatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Tizimning shaffof ishlashi bevosita xonadonlarga suyultirilgan gaz o‘z vaqtida va sifatli yetkazib berilishini ta’minlaydi.

Bugungi kunda “Hududgazta’minot” aksiyadorlik jamiyati tomonidan 3 million 730 mingdan ortiq xonadon va 3 mingga yaqin ijtimoiy soha obyekti suyultirilgan gaz bilan ta’minlanmoqda. 2026-yil yanvar-avgust oylarida iste’molchilarga jami 352,1 ming tonna suyultirilgan gaz, qo‘shimcha 8,6 mingta maishiy gaz balloni yetkazib berildi. Ushbu jarayonlarga 886 ta maxsus avtotransport vositasi jalb etilgan bo‘lib, qo‘shimcha tarzda yana 48 ta maxsus avtotransport xarid qilinib, foydalanishga topshirildi.



Bu borada qamrov ko‘lami ortib borayotgani rost. Ammo ta’minotni yanada yaxshilash bo‘yicha oldimizda muhim vazifalar turibdi. Ayrim hududlarda yetkazib berish muddatlari cho‘zilishi ta’minotni yanada takomillashtirish zaruratini ko‘rsatyapti. Samaradorlikni oshirish uchun raqamli hisob bilan birga resurslarni xarid qilish, moliyalashtirish va xizmat ko‘rsatish mexanizmlarini ham rivojlantirish talab etiladi. Qolaversa, bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini suyultirilgan gaz bilan ta’minlash funksiyalarini ixtisoslashtirish, mazkur faoliyatning moliyaviy shaffofligini ta’minlash va bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish hayotiy zaruratga aylandi. Prezidentimizning yuqorida qayd etilgan qarori aynan shu vazifalarni o‘zaro bog‘liq holda hal etishga qaratilgan.

Qarorga muvofiq, “Hududgazta’minot” AJ ta’sischiligida “LPG-Trade” mas’uliyati cheklangan jamiyati tashkil etilmoqda. Kompaniya joriy yil 1-noyabrdan gazni birja orqali xarid qilib, aholiga yetkazib berish tizimini yo‘lga qo‘yadi. Yangi mexanizmga ko‘ra, “O‘zbekneftgaz” AJ va “Lukoil Overseas Supply and Trading Ltd” kompaniyasi ishlab chiqaradigan suyultirilgan gaz to‘liq hajmda tovar-xomashyo birjalarining alohida savdo maydonchasiga chiqariladi. Ushbu maydonchadagi gaz “LPG-Trade” tomonidan aholi ehtiyojlari uchun xarid qilinadi.

Boshqa ishlab chiqaruvchi va import qiluvchi korxonalar ham mazkur maydonchada ixtiyoriy ravishda gaz sotishlari mumkin. Agar alohida savdo maydonchasidan xarid qilinadigan hajm aholi ehtiyojlari uchun yetarli bo‘lmasa, “LPG-Trade” birjaning ochiq savdolari orqali qo‘shimcha gaz xarid qiladi. Bunda kompaniyaning o‘ziga suyultirilgan gazni import qilishga ruxsat berilmaydi. Xususiy tadbirkorlik subyektlari esa import hisobidan ham aholiga gaz yetkazib beradi.

Ushbu o‘zgarishlarda xonadonlarga suyultirilgan gaz yetkazib berish ustuvorligi saqlanadi. Qarorda “LPG-Trade”ning aholiga davlat tomonidan tartibga solinadigan chakana narxlarda gaz yetkazib berishi bilan bog‘liq narxlar tafovuti va iqtisodiy jihatdan asoslangan xarajatlarini respublika byudjetidan qoplash belgilangan. Bu ta’minotni moliyalashtirishning aniq mexanizmini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qo‘llab-quvvatlash ham qarorning muhim yo‘nalishidir. Hujjatda Vazirlar Mahkamasiga suyultirilgan gazning chakana narxi, yetkazib berish xizmatining cheklangan narxi hamda ehtiyojmand aholiga manzilli ijtimoiy yordam mexanizmlarini nazarda tutuvchi qarorni qabul qilish vazifasi yuklatilgan. Demak, bozor mexanizmlarini joriy etish jarayoni aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash choralari bilan birgalikda olib boriladi.

Xususiy sektor ishtirokini kengaytirish bo‘yicha Andijon viloyatida alohida tajriba loyihasi yo‘lga qo‘yilmoqda. 2026-yil 1-oktabrdan “LPG-Trade” faoliyati bilan birga tadbirkorlik subyektlari import qilingan suyultirilgan gazni maishiy ballonlarda iste’molchilarga to‘g‘ridan to‘g‘ri, erkin narxlarda yetkazib berishda ishtirok etadi. Loyihada kamida ikkita operator faoliyat yuritishi talab etiladi. Operatorlar zarur infratuzilma, moddiy-texnik baza, litsenziya va ruxsat hujjatlariga ega bo‘lishi, xodimlari esa xavfsiz ish yuritish bo‘yicha o‘qitilgan va tegishli sinovlardan o‘tgan bo‘lishi lozim.

Iste’molchilarga xizmatlarni onlayn ko‘rsatish uchun mobil ilovani ishga tushirish belgilangan. Shuningdek, aholi joylashuvi va masofadan kelib chiqib, xavfsizlik talablariga mos gaz ballonlarini saqlash va sotish shoxobchalarini tashkil etishga ruxsat beriladi. Bu choralar iste’molchi uchun tanlov va xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

Xavfsizlik talablarini takomillashtirish muhim masalalardan biri. Qarorda gaz ballonlarini saqlash va sotish shoxobchalarini loyihalash, ballonlarni tashuvchi transport vositalariga qo‘yiladigan talablarni qayta ko‘rib chiqish, maishiy ballonlarga doir texnik talablarni xalqaro talablarga muvofiqlashtirish vazifalari belgilangan. Qolaversa, sohaning uzoq muddatli rivoji uchun xalqaro konsalting kompaniyalari ishtirokida suyultirilgan gaz bozorini erkinlashtirish va “LPG-Trade” aktivlarini xususiylashtirish strategiyalari ishlab chiqiladi.

Belgilangan vazifalar ko‘lami keng. Ammo biz uchun islohotlarning amaliy natijasi iste’molchi olayotgan xizmatda ko‘rinishi muhim. “E-Gaz” va Face ID orqali shakllangan raqamli hisob, yangilanayotgan transport va maishiy gaz ballonlari ta’minotni tashkil etish uchun asos bo‘lmoqda. Endi shu asosni resurslarni xarid qilishning yangi tartibi, xususiy sektor ishtiroki va manzilli davlat yordami bilan mustahkamlash vazifasi turibdi.

Yangi tizim to‘liq ishga tushgach, ta’minotda muhim o‘zgarishlar bo‘lishi tabiiy. Aynan shu jarayonlarda aholi ta’minoti ustuvorligini saqlash oldimizdagi katta mas’uliyatdan biri. Har bir o‘zgarishni xonadonga gazning o‘z vaqtida yetib borishi va xizmat sifati yaxshilanishi bilan baholashimiz kerak. Bugun ko‘rilayotgan choralar ortida aynan shu maqsad yotibdi.

Tahlil

BIR CHIROQ, BIR ODAT,



BIR MAMLAKAT MANFAATI

Bugun davlatlarning iqtisodiy qudrati, investitsiyaviy jozibadorligi va hatto milliy xavfsizligi ham energetika sohasidagi imkoniyatlari bilan tobora chambarchas bog‘lanib bormoqda. Kechagina neft, gaz yoki elektr energiyasi asosan iqtisodiy resurs sifatida baholangan bo‘lsa, bugun ular davlatlar tashqi siyosati, geosiyosiy raqobat va global barqarorlikning eng muhim omillaridan biriga aylandi.



O‘rolboy XOLIQNAZAROV,
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent


Insoniyat tarixida hech qachon bugungidek ko‘p energiya ishlab chiqarilmagan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari bunchalik tez rivojlanmagan. Ammo shunga qaramay, energetika xavfsizligi masalasi hech qachon hozirgidek dolzarb bo‘lgan emas. Buning sababi ham ayon. Dunyoda tobora keskinlashayotgan vaziyat, xalqaro transport yo‘laklaridagi xavf-xatarlar, jahon energiya bozoridagi beqarorlik davlatlarni energetika siyosatiga yangicha nigoh bilan qarashga majbur qilmoqda.

Masala faqat qancha energiya ishlab chiqarishda emas. Asosiy vazifa — uning barqarorligini ta’minlash, mavjud resurslardan samarali foydalanish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va kelajak ehtiyojlari uchun mustahkam energetik poydevor yaratishdir. Zero, energetika sohasidagi har bir oqilona qaror mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishi, aholi farovonligi va sanoat taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda ham keyingi yillarda mazkur sohani tubdan isloh qilish, xususiy investitsiyalarni keng jalb etish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish va infratuzilmani modernizatsiya qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, shu yil 27-iyul kuni davlatimiz rahbari raisligida yoqilg‘i-energetika tarmog‘ining kelgusidagi ustuvor vazifalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida sohada erishilgan natijalar tanqidiy-tahliliy ko‘rib chiqilib, uni yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berildi.

Yig‘ilishda qayd etilganidek, so‘nggi o‘n yilda energetika tarmog‘iga 23 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb etildi. Umumiy quvvati 9,5 gigavatt bo‘lgan yangi elektr stansiyalari ishga tushirildi. Elektr va gaz tarmoqlari, podstansiyalar, transformatorlar hamda gaz taqsimlash infratuzilmasini yangilashga 30 trillion so‘m yo‘naltirildi. Keltirilgan raqamlar energetika sohasidagi islohotlar mamlakatning bugungi ehtiyojlarini qondirish bilan cheklanmay, uning uzoq muddatli energetika xavfsizligi va iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashga qaratilganini yaqqol ko‘rsatadi.

Biroq energiyadan oqilona foydalanish madaniyati shakllanmasa, eng yirik elektr stansiyasi ham, eng zamonaviy texnologiya ham kutilgan samarani to‘liq bermaydi. Xalqimizda “Yotib yesang, tog‘ ham chidamaydi” degan hikmatli gap bor. Bu gap nafaqat mehnatga undash ma’nosida ishlatiladi, balki har qanday ne’matga tejamkorlik bilan munosabatda bo‘lish zarurligini uqtiradi. Zotan, tabiiy boyliklar ham, energiya resurslari ham behisob emas.



Energiya tejamkorligi haqida gap ketganda, ko‘pchilik uni faqat oylik to‘lovlarni kamaytirish bilan bog‘laydi. Aslida, bu masalaning mazmuni ancha keng. Tejalgan har bir kilovatt-soat elektr energiyasi yoki har bir kub metr gaz mamlakat iqtisodiyoti uchun qo‘shimcha resurs demakdir. Shuningdek, yangi sanoat korxonalari uchun imkoniyat, qishloq xo‘jaligi uchun barqaror ta’minot, aholi uchun ishonchli energiya tizimi degani.

Xo‘sh, energiya qayerda va qanday isrof bo‘ladi? Bu savolga javob izlaganda ko‘pincha katta sanoat korxonalari yoki eski infratuzilma haqida o‘ylaymiz. Albatta, bu omillar ham muhim. Ammo energetika tizimining yana bir muhim bo‘g‘ini borki, u har birimizning kundalik hayotimiz bilan bog‘liq. Bu — xonadonlardagi energiya iste’moli madaniyati.

Tasavvur qiling: bir mahallada yuzta xonadon bor. Kechki payt har bir xonadonda bittadan ortiqcha chiroq bir soat yonib turibdi. Hech kim buni katta isrof deb o‘ylamaydi. Chunki bir dona lampaning sarfi unchalik ko‘zga tashlanmaydi. Ammo ana shu oddiy holat yuzlab mahallalarda, minglab ko‘chalarda takrorlansa, natijada qancha energiya behuda sarflanayotganini tasavvur qilish qiyin emas.



Yoki boshqa bir misol. Yozning issiq kunlarida konditsioner xona sovitish uchun ishlayapti. Ammo eshik yoki deraza ochiq qolgan. Sovuq havo xonada saqlanmaydi. Qurilma esa kerakli haroratni ushlash uchun yanada ko‘p ishlashga majbur bo‘ladi. Yuqoridagi holat ham bir qarashda oddiy ko‘rinadi, ammo energiya tizimidagi samaradorlik aynan shunday kichik omillardan shakllanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda energiya tejamkorligi davlat siyosati bilan birga aholi madaniyatining muhim qismiga aylangan. Masalan, Yevropa davlatlarida binolarning issiqlik samaradorligiga katta e’tibor qaratiladi: deraza va eshiklarning zichligi, devorlarning issiqlikni saqlash xususiyati, energiya tejamkor maishiy texnikadan foydalanish keng targ‘ib qilinadi. Yaponiyada esa energiyani tejash nafaqat iqtisodiy zarurat, balki kundalik intizom va mas’uliyat sifatida qabul qilinadi.

Bu tajribalar bir haqiqatni ko‘rsatadi: energetika barqarorligi faqat elektr stansiyalari va gaz quvurlari bilan cheklanmaydi. U insonning munosabati, odati va mas’uliyati bilan ham belgilanadi. Mutaxassislar bejiz “Eng arzon energiya — tejalgan energiya”, deb aytmaydi. Chunki yangi elektr stansiyasi qurish uchun milliardlab dollar mablag‘, yillab vaqt va katta mehnat talab etiladi. Lekin bor energiyani tejash uchun ko‘p hollarda oddiy odatlarni o‘zgartirishning o‘zi kifoya.

Energiya tejamkorligi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bilan ham bog‘liq. Bugun led lampalar, energiya samarador maishiy texnikalar, “aqlli” hisoblagichlar va avtomatik boshqaruv tizimlari keng joriy etilmoqda. Bir qarashda ularning narxi balandroq tuyulishi mumkin. Ammo vaqt o‘tishi bilan ular kam energiya sarflashi hisobiga o‘zini to‘liq oqlaydi.

Ayniqsa, O‘zbekiston kabi quyoshli mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Quyosh panellari va quyosh suv isitkichlari nafaqat elektr va gaz sarfini kamaytiradi, balki aholining energiya mustaqilligini ham mustahkamlaydi. Bugun bunday texnologiyalar hayotimizga kirib kelayotgan real yechimdir.

Biroq texnologiyaning o‘zi yetarli emas. Uni to‘g‘ri ishlatish madaniyati ham bo‘lishi kerak. Energiya tejamkor lampa o‘rnatib, uni kun bo‘yi besamar yoqib qo‘yishdan foyda yo‘q. Energiya samarador konditsionerni eshik-deraza ochiq holda ishlatish ham kutilgan natijani bermaydi. Demak, texnologiya va madaniyat bir-birini to‘ldirishi lozim.

“Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, deydi xalqimiz. Farzand ota-onasining chiroqni vaqtida o‘chirgani, suvni behuda oqizmasligi, gazdan ehtiyotkorlik bilan foydalanishini ko‘rib ulg‘aysa, bu odat uning hayot tarziga aylanadi. Shu ma’noda, energiya tejash iqtisodiy tushunchagina emas, tarbiya masalasi hamdir.

Bugun mamlakatimizda energetika sohasidagi keng ko‘lamli islohotlardan ko‘zlangan maqsad aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror energiya bilan ta’minlashdir. Ammo unga erishishda har bir fuqaroning ishtiroki muhim. Davlat yangi quvvatlar yaratadi, infratuzilmani modernizatsiya qiladi. Fuqaro esa resursni qadrlaydi, isrofga yo‘l qo‘ymaydi. Ana shunda haqiqiy samaraga erishiladi. Uydan chiqishda chiroqni o‘chirish, keraksiz elektr jihozlarini tarmoqdan uzish, suvni tejab ishlatish, deraza va eshiklarni zichlash, energiya samarador texnikani tanlash kabi ishlar arzimasdek ko‘rinadi. Ammo millionlab insonlar shu oddiy qoidalarga amal qilsa, natija butun mamlakat miqyosida namoyon bo‘ladi.

Bugun energetika sohasidagi eng katta boylik faqat neft yoki gaz emas. Eng katta boylik energiyaga nisbatan shakllangan ongli munosabatdir. Resursni qadrlaydigan jamiyat uning qadriga yetadi, tejaydi va kelajak avlod uchun ham asrab qoladi. Energetika sohasidagi islohotlar davlatning vazifasi bo‘lsa, energiya tejamkorligi har birimizning kundalik mas’uliyatimiz. Bugun tejalgan har bir kilovatt-soat ertangi taraqqiyot uchun xizmat qiladi. Zero, barqaror energetika faqat yangi elektr stansiyalari bilan emas, balki har bir xonadonda shakllangan tejamkorlik madaniyati bilan barpo etiladi.



1-oktabr —

O‘qituvchi va murabbiylar kuni

YANGI AVLOD MUALLIMLARI

QANDAY BO‘LISHI KERAK?

Aslida, davra suhbatimizni “Yaxshi o‘qituvchi qanday bo‘lishi kerak?” degan mavzuda o‘tkazmoqchi edik. Biroq biz shu paytga qadar nazarda tutib kelgan yaxshi o‘qituvchi — asosan, kuchli bilimga egalik bugun yetarli emasligini ta’limdagi shiddatli siljishlar ko‘rsatib turibdi. Globallashuv davrida ustoz o‘zgarmasa, ta’lim tizimi o‘zgarmasligi, kelajak ustoziga eng katta xavf eskicha fikrlash ekani o‘qituvchilarning butunlay yangi avlodi shakllanishini taqozo etmoqda. Shu ma’noda, avvalo, zamonaviy o‘qituvchi shaxsiga to‘xtalamiz. Shuningdek, yangi avlod ustozi sifatida shakllanish uchun nimalar qilishimiz lozim, bunda qaysi jihatlar birlamchi o‘rin tutadi, bugungi ustoz kechagidan qanday farqlanishi kerak degan savollarga javob izlaymiz.



Sulton NORMATOV,
Abdulla Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti mas’uli:



— Haqiqatan, bugun butunlay yangi avlod ustozlari shakllanyapti. Zero, axborot oqimi, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt hayotimizga jadal kirib kelayotgan bir paytda o‘qituvchining roli ham o‘zgarib boryapti. Bugungi maktab kechagi maktabdan, bugungi o‘quvchi esa kechagi o‘quvchidan tubdan farq qiladi. Shunday ekan, yangi avlod ustozi deganda qanday shaxsni tasavvur qilishimiz kerak?

Yangi avlod ustozi bu — faqat o‘z fanini yaxshi biladigan mutaxassis emas. U o‘quvchini tushunadigan, qiziqishi va imkoniyatlarini ko‘ra oladigan, mustaqil fikrlashga undaydigan shaxs. Shu bilan birga, o‘zi ham doimiy ravishda o‘rganib boradigan, pedagogik tilda aytganda, “hayot davomida ta’lim” oladigan o‘qituvchidir.

Bugun o‘quvchi istalgan ma’lumotni internet yoki sun’iy intellekt vositalari orqali bir necha soniyada topishi mumkin. Shunday sharoitda o‘qituvchining vazifasi tayyor ma’lumotni yetkazishdan ko‘ra, o‘quvchini shu ma’lumotni izlash, tekshirish, tahlil qilish va undan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatish bilan bog‘liq bo‘lib bormoqda.

Shu sababli o‘qituvchining o‘z fanini mukammal bilishi juda muhim bo‘lsa-da, buning o‘zi yetarli emas. Fanga oid bilimlar pedagogik mahorat, raqamli kompetensiya, tanqidiy fikrlash, kommunikativ qobiliyat va refleksiya bilan uyg‘unlashishi kerak. Masalan, matematika o‘qituvchisining matematikani yaxshi bilishi tabiiy. Ammo u o‘quvchida matematik fikrlashni shakllantira oladimi? Informatika o‘qituvchisi dasturlashni bilishi mumkin. Lekin u o‘quvchini algoritmik fikrlashga o‘rgata oladimi? Yangi avlod ustozining kasbiy darajasi aynan shunday savollar orqali namoyon bo‘ladi. Yodlash, eslab qolish emas, balki hayotda qo‘llay olishga imkon beruvchi amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirish muhim va bunga o‘qituvchi tayyor bo‘lishi lozim.

Kamola ABRORXONOVA,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti kafedra mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori:

— To‘g‘ri, bugungi o‘qituvchi oldidagi eng katta xavflardan biri aynan eskicha fikrlash. Afsuski, yangilikni qabul qilmaslik, o‘zgarishdan qo‘rqish, o‘quvchining dunyosi o‘zgarganini tan olmaslik va “bizning davrimizda bunday edi” degan qarash bilan ishlash bugun aksar maktablarda kuzatiladi. Aslida esa ta’lim — doimiy harakatdagi tizim. Bugun samarali bo‘lgan metod ertaga o‘sha natijani bermasligi mumkin. Shu sababli ustoz ham o‘quvchisi kabi umr bo‘yi o‘rganishi kerak. U yangi pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirishi, raqamli vositalardan foydalanishi, sun’iy intellekt imkoniyatlarini bilishi, eng muhimi, o‘quvchining zamonaviy dunyosini tushunishga harakat qilishi zarur.



Men uchun yangi avlod ustozi har bir o‘quvchida imkoniyat ko‘ra oladigan ustoz. U a’lochi bolaning yutug‘idan quvonadi, lekin faqat kuchli o‘quvchiga e’tibor qaratib qolmaydi. Darsda jim o‘tirgan, o‘ziga ishonmayotgan, “men uddalay olmayman”, deb o‘ylayotgan bolani ham ko‘ra oladi. Aslida, barcha bola iqtidorli, barcha bola qobiliyatli, faqat ba’zan bir og‘iz “sen uddalaysan” degan so‘z bola hayotini butkul o‘zgartirib yuborishi mumkin. Shuning uchun haqiqiy ustozning natijasini faqat bugungi baholar bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Balki uning haqiqiy natijasi yillar o‘tib namoyon bo‘ladi. Xususan, o‘quvchisi mustaqil fikrlaganda, to‘g‘ri qaror qabul qilganda, olgan bilimini hayotda qo‘llaganda va bir kun “ustozim menga ishongan edi”, deb eslaganda.

Yangi avlod ustozi, shuningdek, fanni o‘quvchi uchun hayotiy ma’noga aylantirib bera oladigan, texnologiyadan foydalanadigan emas, texnologiyani ta’lim maqsadiga bo‘ysundira oladigan, dars o‘tadigan emas, o‘quvchi kelajagiga ta’sir qila oladigan shaxsdir. Ustoz sinfga shunchaki bir soatlik dars uchun kirmaydi. U kelajak avlodning dunyoqarashini o‘stirish, orzulariga qanot berish uchun ham kiradi. Buning uchun zamonaviy qurilmalardan foydalanish yoki yangi metodlarni bilishning o‘zi kifoya emas. Bu, avvalo, o‘zini ham har kuni yangilashga tayyor bo‘lishdir. Kelajakni o‘zgartirish uchun ta’limni o‘zgartirish kerak. Ta’limni o‘zgartirish uchun esa, avvalo, ustozning o‘zi o‘zgarishga tayyor turmog‘i lozim.

Sharofiddin HUSANOV,
Farg‘ona shahridagi 5-maktab direktori:

— Bugungi o‘qituvchi qanday bo‘lishi haqida gap ketganida, o‘zim misolimda to‘xtalib o‘tsam. Zero, direktorlik ham, avvalo, pedagoglik. Pedagog esa ortidan



bolalarni ergashtira olish qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxs. Shunday ekan, bolalar maktab rahbarini ko‘rganida qo‘rqib qochmasin, balki oldiga yugurib kelib, undan mehr olsin, ota-onasiga ayta olmayotgan gaplarini aytsin. Sinf rahbari, fan o‘qituvchilari ham xuddi shunday bo‘lishi kerak.

Albatta, bunga erishish oson emas. Mendan so‘rashadi: qanday qilib hamma o‘quvchi bilan salomlashasiz, barcha o‘quvchingizning ism-sharifini bilasiz, yana har kuni sinflarga kirishga vaqt topasiz?

To‘g‘ri, har kun ertalab maktab ostonasida bolalarni kutib olish odatimni o‘zim shakllantirdim, biroq hozirga kelib o‘quvchilarning o‘zi salomlashish uchun oldimga keladi. Ko‘ngliga yoqadigan gaplarni gapirib yoki bolalarcha hazillashib qo‘ysam, xursand bo‘lib ketadi.

Zamonaviy o‘qitish uslubiga keladigan bo‘lsak, endilikda bolalarni darslarga yangi, innovatsion usullar bilangina jalb qila olamiz deyilyapti, bunga qo‘shilaman. Bolalardan o‘rganishni ham bilishimiz kerak, masalan, sun’iy intellektdan foydalanish borasida. O‘quvchidan nimalarnidir o‘rganish orqali unga o‘z ustida ishlashiga katta turtki bera olamiz. Zero, bola o‘qituvchim so‘rab qolishi mumkin degan mas’uliyat bilan ilmga doir dasturlarni, yangiliklarni ham o‘rganishga intiladi. Shu tariqa o‘ziga ishonch, jamiyatda o‘rni borligini anglash tuyg‘usi ham shakllanadi.

Har qaysi davrda bola psixologiyasini bilish, shunga asoslanib u bilan muloqot qila olish pedagogning eng katta yutug‘i bo‘lgan. Tilini topdingizmi, bola o‘z-o‘zidan sizga ergashadi. Sizni orzusidagi shaxs sifatida ko‘ra boshlaydi. Shu orqali uni ta’limdagi har qanday yangilik sari yetaklash mumkin.

Qo‘chqorvoy ORTIQOV,
Andijon viloyati Qo‘rg‘ontepa tumanidagi 21-maktabning kimyo fani o‘qituvchisi:

— Pedagog, avvalo, faoliyatining tub mohiyatini, ya’ni bola yetaklovchi ekanini anglab yetishi kerak. O‘qituvchining o‘zi bolani qayoqqa yetaklayotganini bilmasa, bilgan taqdirda ham bolada o‘sha yo‘lda yurish uchun qobiliyat bor-yo‘qligini ilg‘ay olmasa, muammolar kelib chiqaveradi sohada. Zero, hozir bolani darsga jalb qilib olish birlamchi masalaga aylangan, chunki bolalar tarbiyasida avvalgiga nisbatan bo‘ysunuvchanlik kam. Vaholanki, bola eshitmasa, biror narsani tushunmaydi. Qolaversa, bugun bolaga qabul qilishiga qarab bilim berish kerak bo‘lyapti.

O‘quvchi diqqat bilan tinglashi uchun o‘qituvchida notiqlik ham kuchli bo‘lishi kerak. Qolaversa, o‘quvchi yaxshi o‘qishi uchun o‘qituvchi ota-ona bilan ham uzviy bog‘liqlikda bo‘lishi, bolaning ruhiyatini ham yaxshi bilishi talab qilinadi. Buning uchun imkon qadar bola bilan individual ishlashga yo‘l topish lozim. 30 o‘quvchida 30 xil xarakter. Bejiz fanda insonlarning xulq-atvori to‘rt turga bo‘lib o‘rganilmagan. Bola bilan shundan kelib chiqqan holda ishlansa, maqsadga yetish osonroq ko‘chadi. O‘zining fanini zo‘r bilgan o‘qituvchi zo‘r natijaga



erishadi deyish shu ma’noda noto‘g‘ri bo‘lib qoladi. O‘quvchi qachonki qarshisidagi o‘qituvchini o‘zining idealidagi odam deb tasavvur qilsagina, uning gapiga quloq soladi va shunda natija bo‘ladi. Ustoz tarbiyalovchi bo‘lgani uchun ham o‘zi tarbiyaga muhtoj bo‘lmasligi, ham ta’limiy, ham tarbiyaviy tomondan o‘rnak bo‘la olmog‘i shart. Binobarin, tarbiya bilan bilim xuddi qushning ikkita qanotiga o‘xshaydi. Tarbiyasiz odamda bilim, bilimsiz odamda tarbiya shakllangani bilan manfaatli bo‘lmaydi.

Kamola ABRORXONOVA:

— Aslida, ustoz bo‘lish qiyin emas, ammo sinfdagi 30 ta qorako‘zga birdek yoqish, ko‘nglining tubiga kirib borish, bir xil mavzuni birdek yetkazish — katta mahorat.

Ba’zan biror mavzuni juda yaxshi tushuntirdim deb o‘ylashimiz mumkin. O‘zimizdan ko‘nglimiz to‘lishi ham tabiiy. Men bunga qarshi emasman. Lekin darsning haqiqiy natijasi ustozning “qanchalik yaxshi tushuntirgani” bilan emas, o‘quvchining qanchalik anglagani bilan o‘lchanadi. Bugun tushuntirilgan bir fikr o‘quvchining xotirasida yillar davomida qolsa, kerakli vaziyatda uni hayotida qo‘llay olsa, ustoz mehnatining eng katta natijasi mana shu. Shu ma’noda, nazarimda, ustozning mas’uliyati diplom berilgan kundan emas, o‘quvchining hayotiga ta’sir qilgan kundan boshlanadi.

Bu yerda yana bir muhim masala bor. Har yili pedagogik yo‘nalishlarda minglab yoshlar mutaxassis sifatida tayyorlanadi. Ammo oliy ta’limni tamomlagan har bir pedagogning aynan maktabga borib, uzoq yillar o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ishlashi haqida O‘zbekiston miqyosida yagona, muntazam ochiq statistika hali mavjud emas. Bu esa, menimcha, alohida o‘rganilishi kerak bo‘lgan masala. Chunki biz faqat “qancha pedagog tayyorladik?” degan savol bilan cheklanmasligimiz kerak. “Ularning qanchasi kasbida qoldi?”, “Nega ayrimlari boshqa sohaga ketdi?”, “Yosh pedagogni maktabda ushlab qolish uchun nimalar qilish kerak?” degan savollar ham berilishi lozim.

Ayni paytda umumta’lim maktablarida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilar soni sezilarli darajada ortgani ham ta’lim tizimida pedagoglarga ehtiyoj yuqori ekanini ko‘rsatadi. Ammo miqdor ortishi bilan birga sifat masalasi ham doimo kun tartibida turishi kerak. Hozirgi bolalar axborot asrida ulg‘aymoqda. Ular ma’lumotni ustozdan kutib o‘tiradigan avlod emas. Ular savol beradi, taqqoslaydi, internetdan izlaydi, sun’iy intellektdan foydalanadi, o‘z fikrini bildiradi. Demak, ustoz ham shunday muhitda o‘z o‘rnini qayta anglab olishi kerak. Agar pedagog “men ustozman, shuning uchun faqat men bilaman” degan qarashda qolsa, bugungi bola bilan o‘rtadagi masofa tobora kattalashadi. Aksincha, “men ham har kuni o‘rganaman”, deya olgan ustoz o‘quvchisi bilan birga rivojlanadi.

Sulton NORMATOV:

— Zamonaviy o‘qituvchi haqida gap ketganida, avvalo, eskicha fikrlashdan yiroqlik ko‘zda tutilar ekan, bunda eski metodlardan foydalanishni tushunmaslik kerak. Eskicha fikrlash o‘quvchini faqat tinglovchi, o‘qituvchini esa barcha savollarga tayyor javob beruvchi shaxs sifatida ko‘rishdir. Zamonaviy ta’lim esa o‘quvchining savol berishini, bahslashishini, xato qilsa, mustaqil xulosa chiqarishini talab qilmoqda.

Ayniqsa, sun’iy intellekt davrida bu masala yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Sun’iy intellekt o‘quvchiga ko‘plab savollarga javob topishda yordam berishi mumkin. Ammo javobning qanchalik to‘g‘ri ekanini baholash, manbasini tekshirish, undagi xatoni aniqlash va texnologiyadan foydalanish masalasida o‘qituvchining roli beqiyos. Demak, texnologiyalar rivojlangan sari ustozning ahamiyati kamaymaydi, aksincha, uning vazifasi yanada mazmunli va murakkab tus oladi.

A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy institutida ham pedagogning aynan shunday yangi qirralarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bugungi malaka oshirishni faqat ma’ruza tinglash va ma’lumot olish jarayoni emas, balki pedagogning amaliy kompetensiyasini rivojlantirish vositasi sifatida ko‘rish muhim. Shu bois, o‘qituvchining zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli vositalar va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish, ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish va uni mahalliy ta’lim amaliyotiga moslashtirish yo‘nalishlarida ishlanmoqda.

Bugungi kunda malaka oshirishning mohiyati ham o‘zgarishi kerak. “Tingla va eslab qol” tamoyilidan “o‘rgan, amalda sinab ko‘r, tahlil qil va takomillashtir” tamoyiliga o‘tish zarur va bu real hayotda amalga oshirilmoqda. Chunki pedagogning kasbiy rivoji kursni tugatgani emas, o‘rgangan pedagogik, metodik bilim va ko‘nikmalarini o‘z darsida qo‘llay olishi bilan belgilanadi.

Men yangi avlod ustozini eng ko‘p ma’lumot beradigan o‘qituvchi emas, balki eng ko‘p mustaqil fikrlaydigan o‘quvchini tarbiyalay oladigan pedagog sifatida tasavvur qilaman. Uning darsidan chiqqan bola “Men buni o‘zim ham tekshirib ko‘raman”, “Buning boshqa yechimi bormi?”, “Nega aynan shunday?” degan savollarni berishni boshlaydi.

Texnologiyalar o‘zgaradi, yangi platformalar va sun’iy intellekt vositalari paydo bo‘ladi. Ammo bolaga uni tushunadigan, ilhomlantira oladigan va o‘ziga ishonch beradigan ustoz har doim kerak bo‘ladi. Shuning uchun yangi avlod ustozi, avvalo, o‘zgarishdan qo‘rqmaydigan, o‘zi o‘rganishni to‘xtatmaydigan va o‘quvchisini ham o‘rganishga ilhomlantira oladigan ustozdir.

Nazarimda, bugungi maktabga shunchaki yangi texnologiyalarni biladigan pedagog emas, yangicha fikrlaydigan, o‘zgarishdan qo‘rqmaydigan, o‘quvchilarni his qilgan holda ularni ilhomlantiradigan ustozlar kerak.

Qo‘chqorvoy ORTIQOV:

— Ha, bugun sezilarli darajadagi yutuqlarga erishish oson emas. Najot faqat ta’limda ekan, insonlarning sog‘lom turmush tarzi ham ta’lim bilan shakllanadi. Bugun jamiyatimiz shunday xulosalarga e’tibor qaratishi har qachongidan ham zarur. Endi faqat natijaga ishlashimiz kerak. Buning uchun bugun barcha sharoitlar, eng asosiysi, e’tibor keragidan ortiq. Birgina isbot. Olimpiada g‘oliblari milliarderga aylanganini shu paytgacha ko‘rgan edikmi? Yaqin-yaqinlarda ham ilm-fanga nega sportchalik e’tibor berilmaydi deb yurgandik-ku! Bugunga kelib ilm har narsadan ustun, bebaho boylik ekani va shuning uchun yuksak qadr topishiga guvoh bo‘lib turibmiz. Butun bir xalq, ota-onalar ilm uchun sarmoya kiritayotgani bejiz emas. Ular aslo adashmaydi. Bizdan esa faqat va faqat o‘qish, o‘rganish, o‘z ustimizda ishlash, o‘rganganlarimizni amaliyotda to‘g‘ri qo‘llay bilish talab qilinyapti. Mana shu yo‘lda sobit tura olish esa Uchinchi Renessansga hissa qo‘shadigan bunyodkor avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

* * *

Ha, bugunning o‘qituvchisi bo‘lish ham sharaf, ham mashaqqat. Sharafliligi shundaki, o‘qituvchi kasbining obro‘si har qachongidan ortdi. Ustozni ulug‘lash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Mashaqqatli tomoni esa — hurmatga yarasha mehnat qila olishda. Aslida, bu ham bir sharaf. Zero, har qancha mehnat qilsa ham qadr topmagan har bir kuni bugunning ustozlari uchun achchiq haqiqat. Shu ma’noda, o‘ziga bildirilayotgan ishonchni sidqidildan oqlash, kasbiga sadoqat saqlash mas’uliyati yangi avlod ustoziga faqat kuch va g‘ayrat beradi.

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Har bir millatning kelajagini uning maktablari, ilm dargohlari va ustozlariga munosabatiga qarab baholash mumkin. Chunki bugun auditoriyada, sinfxonada yoki ta’lim muassasasida o‘tirgan yoshlar ertangi kunning bunyodkorlaridir.

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Nurli manzillar



ILM ZIYOSIN TARATGUVCHI ZOT

Inson hayotida shunday ulug‘ zotlar borki, ularning nomi qalbimizda bir umrga muhrlanadi. Bizga ilk bor harf tanitgan, qo‘limizdan tutgan, ilm eshiklarini ochgan, yaxshi-yomonni anglashga, hayotda o‘z o‘rnimizni topishga yo‘l ko‘rsatgan ana shunday aziz insonlar ustoz va murabbiylardir.



Abduqahhor domla YUNUSOV,
Toshkent shahri
bosh imom-xatibi

Har yili 1-oktabr yurtimizda O‘qituvchi va murabbiylar kuni sifatida keng nishonlanadi. Zero, jamiyatning ertangi kuni, mamlakatning taraqqiyoti, xalqning ma’naviy qiyofasi, avvalo, ustozlarning mashaqqatli va sharafli mehnati bilan chambarchas bog‘liq. Bugun maktab ostonasida ta’lim olayotgan farzand ertaga oila boshlig‘i, mutaxassis, rahbar, olim yoki jamiyatning faol a’zosiga aylanadi. Uning dunyoqarashi, odobi, bilimi va insonlarga munosabati shakllanishida esa ustozning o‘rni beqiyos.

Ustozlik shunchaki kasb emas. U inson qalbiga yo‘l topish, ilm va ma’rifat nurini ulashish, ezgulikka yo‘llash kabi yuksak mas’uliyatdir. Islom dini ham ilm-ma’rifatga yuksak maqom bergan. Qur’oni karimning ilk nozil bo‘lgan oyatlaridayoq inson o‘qish, bilish va tafakkur qilishga da’vat etilgani bejiz emas. Alloh taolo marhamat qiladi: **“Biladiganlar bilan bilmaydiganlar teng bo‘lurmi?!”**

(Zumar surasi, 9-oyat).

Boshqa oyatda esa: **“Alloh sizlardan iymon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni yuksak (daraja) martabalarga ko‘tarur”** deb marhamat qilinadi

(Mujodala surasi, 11-oyat).

Demak, ilm insonni yuksaltiruvchi, jamiyatni taraqqiy ettiruvchi, qalbni ma’rifat bilan yorituvchi buyuk ne’matdir. Ana shu ne’matni avloddan avlodga yetkazishda ustozlarning xizmati beqiyos.

Ustoz bolaga faqat kitobdagi ma’lumotni o‘rgatmaydi. U hayot sabog‘ini beradi. Vaqtni qadrlash, mehnat, kattaga hurmat, kichikka izzatda bo‘lish, Vatanga sadoqat, insonlarga yaxshilik qilishni o‘rgatadi. Shu bois, xalqimiz “Ustoz otangdek ulug‘” deb aytgan.

Aslida, insonning komilligi uning qancha narsani bilishi bilangina emas, balki bilganlarini hayotga qanchalik tatbiq eta olishi bilan ham belgilanadi. Bu borada murabbiyning o‘rni, ayniqsa, muhim. Chunki



haqiqiy murabbiy ilm bilan axloqni, ta’lim bilan tarbiyani, bilim bilan mas’uliyatni birbiriga uyg‘unlashtiradi.

Buyuk ajdodlarimiz hayotiga nazar tashlasak, ularning ilm olish yo‘lida ustozlariga ko‘rsatgan ehtiromiga guvoh bo‘lamiz. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg‘inoniy kabi ulug‘ allomalar kamoloti ortida ulkan mehnat, mashaqqat va ustozlardan olingan ta’lim-tarbiya bor.

Ilm ahli ustoz oldida odobni ilmning bir qismi deb bilgan. Zero, ustozga hurmat aslida ilmga hurmatdir. Ilmga hurmat esa insonni kamolot sari yetaklaydi.

Bugun ham farzandlarimizga shu tushunchani singdirishimiz zarur: ustozni hurmat qilish faqat bayram kunida tabriklash yoki sovg‘a berish bilan cheklanmaydi. Ustozning mehnatini qadrlash, nasihatlariga quloq tutish, darslarni puxta o‘zlashtirish, yaxshi xulq va odob bilan ustoz ishonchini oqlash eng katta ehtiromdir.

Farzandiga ta’lim berayotgan o‘qituvchini hurmat qilgan ota-ona ham, ustozining mehnatini qadrlagan o‘quvchi ham aslida jamiyatning ma’naviy poydevorini mustahkamlashga hissa qo‘shadi. Ta’lim va tarbiya bir-biridan ajralmas tushunchalardir. Bilimli, ammo odobsiz insonning bilimi jamiyatga kutilgan foydani bermasligi mumkin. Shuning uchun ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir”, deb bejiz aytmagan.

Murabbiyning vazifasi ana shu nuqtada yanada oydinlashadi. U yosh avlod qalbiga ezgulik urug‘ini qadaydi. Bugun aytilgan bir og‘iz samimiy nasihat, o‘z vaqtida bildirilgan bir yaxshi fikr, mehr bilan qilingan bir tanbeh ba’zan inson taqdirini butunlay o‘zgartirishi mumkin.

Ayniqsa, bugungi axborot asrida yoshlarni turli yot g‘oyalar ta’siridan asrash, ongida sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish, ilm va ma’rifatga muhabbat uyg‘otish har bir ustoz va murabbiyning zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi.

Har bir millatning kelajagini uning maktablari, ilm dargohlari va ustozlariga munosabatiga qarab baholash mumkin. Chunki bugun auditoriyada, sinfxonada yoki ta’lim muassasasida o‘tirgan yoshlar ertangi kunning bunyodkorlaridir.

Ularning qalbiga qanday g‘oya singdirilsa, kelajak ham shunga yarasha shakllanadi. Agar yosh avlod ilmga chanqoq, Vatanga sadoqatli, ota-onaga mehribon, ustozga hurmatli, halol va mas’uliyatli bo‘lib kamol topsa, jamiyatning ma’naviy poydevori mustahkam bo‘ladi.

Alloh taolo barchamizni ilmni ulug‘laydigan, ustozni qadrlaydigan, ota-onaga yaxshilik qiladigan va jamiyatga, Vatanga manfaat keltiradigan solih insonlardan qilsin!



Bobur BOBOMUROD,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi

Aziz ustoz

Karvonlarni boshlab borgan sarbon kabi,
Eshiklarni ochib bergan darbon kabi,
Kim bor yana siz fidoyi inson kabi.
Shogird borki, hayotida sizdan pardoz,
Boringizga shukr deymiz, aziz Ustoz!

“Lola bo‘lgim” kelar deydi qizg‘aldoqlar,
Buloqlarni daryo aylar baland tog‘lar,
Bezar ekan yuzni ajin, sochni oqlar.
Mehnatingiz, zahmatingiz emasdir oz,
Boringizga shukr deymiz, aziz Ustoz!

Odam aro odamiylik o‘rnatgansiz,
Oq-qorani ajratmoqni o‘rgatgansiz,
Qancha kamtar poygaklarni to‘rlatgansiz.
Orzularga bergan qanot, bergan parvoz,
Boringizga shukr deymiz, aziz Ustoz!

Beruniylar, Navoiylar, Cho‘lponlarni...
O‘qitgansiz, fido aylab siz jonlarni,
Millat uchun yaratasiz imkonlarni.
Ilmu odob siz tufayli erur mumtoz,
Boringizga shukr deymiz, aziz Ustoz!

Dunyo asli o‘zingizdan dunyolanar,
Mehr to‘la ko‘zingizdan ziyolanar,
Ma’no sochgan so‘zingizdan orolanar.
Sizga mudom ehtiromu, shonu e’zoz,
Boringizga shukr deymiz, aziz Ustoz!

Iftixor

Prezidentimiz 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi g‘oliblariga yo‘llagan tabrigida yosh shaxmatchilarimizga “o‘g‘lim”, “qizim”, “bolam”, deya murojaat qilganini o‘qib bir quvongan bo‘lsam, kuni kecha Ko‘ksaroy qarorgohida g‘olib va sovrindorlar, ularning murabbiy va ota-onalari bilan uchrashuvini ko‘rib, el qatori dimog‘im chog‘ bo‘ldi, qalbim g‘ururga to‘ldi.







ISTE’DODLAR QADRLANGAN

YURTDA G‘ALABALAR BARDAVOM

Husan KARVONLI,
jurnalist

Shaxmatchilarimiz, ularning ota-onalari, murabbiylari, umuman, shaxmat mutaxassislari bir gapni, haq gapni ko‘p ta’kidlayapti: “Shaxmatga, shaxmatchilarga munosabat, e’tibor hech qachon bugungidek yuqori darajada bo‘lmagan!”. Prezidentimizning “Nufuzli xalqaro shaxmat musobaqalari g‘oliblari va sovrindorlari hamda ularning trenerlarini munosib rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bunga yorqin misol.

Hujjatga muvofiq, shaxmatchilarimiz va murabbiylari katta miqdordagi pul mukofoti bilan taqdirlanishi belgilab qo‘yilgan. Ko‘ksaroyda bo‘lib o‘tgan uchrashuvda 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi g‘oliblari 200 ming, murabbiylari esa 50 ming AQSH dollari miqdorida pul mukofoti bilan taqdirlandi. Olimpiadada bronza medalni qo‘lga kiritgan parashaxmatchilarimiz ham qaror ilovasida belgilangan pul mukofotini qabul qilib oldi. Olimpiadada g‘alaba qozongan, yurtimiz sharafini munosib himoya qilgan yoshlarning ko‘piga davlat mukofotlari topshirildi. Bu hali hammasi emas, Prezidentimiz tomonidan chempionlarga uy va mashina ham sovg‘a qilindi.

Shaxmatchilarga bunday e’tibor va e’tirof nafaqat bizni, balki dunyodagi butun shaxmat mutaxassislarini hayratlantirmoqda. Xalqaro nashrlar, ijtimoiy tarmoqlarga bir qur nazar tashlasangiz, bunga o‘zingiz guvoh bo‘lasiz. Hatto Hikaru Nakamura kabi jahonning mashhur shaxmatchilari ham yurtdoshlarimiz munosib ko‘rilgan mukofotlarga havas bilan qaramoqda. Jahon shaxmat jamoatchiligi orasida O‘zbekistonda shaxmatning keskin rivojlanishida so‘nggi yillarda davlat tomonidan sohaga qaratilayotgan e’tiborning o‘rni katta ekani bot-bot ta’kidlanadi. Yurtimiz tajribasi boshqa davlatlarga o‘rnak sifatida ko‘rsatiladi. Bir tomondan shaxmat orqali dunyo hamjamiyati yangi O‘zbekistondagi rivojlanish, o‘zgarishlarga ham guvoh bo‘lmoqda.

Shaxmat mavzusida anchadan beri, aniqrog‘i, 2012-yili Nodirbek Abdusattorov jahon chempioni bo‘lganidan buyon yozaman. 2022-yili “O‘zbek shaxmatining oltin avlodi” kitobim nashrdan chiqqan. 2012-yildan buyog‘iga iste’dodli shaxmatchilarimizning har bir yutug‘i, muvaffaqiyatiga zamin tayyorlagan murabbiylari, ota-onalari mehnatini bayon qilib kelaman. Ularning bu yutuqlarga erishishi, albatta, oson bo‘lmagan. Oltin avlodning yutuqlari bilan birga tizimdagi muammolarni ham ko‘p bor qalamga olganman.

Ularda O‘zbekistonda xalqaro shaxmat musobaqalari kamligi, o‘sha paytdagi Shaxmat federatsiyasi mutasaddilarining yosh iste’dodlar taqdiriga befarqligi, shaxmatchilarning ota-onalari chekkan mashaqqatlar, umuman, iste’dodli shaxmatchilarni qo‘llab-quvvatlash tizimli yo‘lga qo‘yilmagani masalalari ko‘tarilgan.

Mana endi Prezidentimizning irodasi bilan bunday to‘siqlarga barham berilmoqda. Oxirgi yillarda mamlakatimizda xalqaro musobaqalar keskin ko‘paygani, ularning g‘olib va sovrindorlari va murabbiylarini munosib rag‘batlantirish tizimli yo‘lga qo‘yilgani muvaffaqiyatlar soni va darajasi ortishiga sabab bo‘lmoqda. 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi va parashaxmat olimpiadasidagi ulkan muvaffaqiyat buning yorqin dalilidir.

Yangi O‘zbekiston shaxmatining oltin avlodi o‘z yutuqlari bilan bunga munosib javob qaytarishiga ishonaman. Bugungi g‘alabalar — ertangi ulkan zafarlarning debochasi. O‘zbek shaxmatining oltin avlodi hali ko‘plab tarixiy natijalarni qayd etadi. Bugun yosh shaxmatchilarimizga ko‘rsatilayotgan e’tibor ertaga yangi chempionlar, yangi jahon rekordlari va yangi tarixiy g‘alabalar bo‘lib qaytadi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-1046.
29213 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Sanjar Eshmurodov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98
E-mail: info@yuz.uz
Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05
Devonxona va ishonch telefoni: (71) 233-56-60

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.